

Samarqand davlat universiteti

Musiqiy ta'lim yo'nalishi

**Musiqqa o'qitish metodikasi va xalq cholg'u asboblari
kafedrası**

**“O'zbek xalq musiqqa merosini o'rganishning o'ziga xos
xususiyatlari (Boshlang'ich sinf musiqqa darslari misolida)”**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Davronova Gulnoza

Ilmiy rahbar: E.Djalilov

Samarqand – 2013

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

MUSIQIY TA'LIM YO'NALISHI

**MUSIQA O'QITISH METODIKASI VA XALQ CHOLG'U
ASBOBLARI KAFEDRASI**

**MAVZU: "O'ZBEK XALQ MUSIQA MEROSINI O'RGANISHNING O'ZIGA
XOS XUSUSIYATLARI (BOSHLANG'ICH SINIF MUSIQA DARSLARI
MISOLIDA)"**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi:  **Davronova Gulnoza**

Ilmiy rahbar:  **E. Djalilov.**



Bitiruv malakaviy ishi Musiqa o'qitish metodikasi va xalq cholg' asboblari kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2013 – yil 31–maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi. (bayonnoma № 10)

Kafedra mudiri:

E.K.Djalilov

Malakaviy bitiruv ishi YakDAKning 2013 – yil 22 – iyundagi majlisida himioya qilindi va 71 foizga baholandi. (bayonnoma № 17)

YakDAK raisi: 

A'zolari:  

Samarqand – 2013

5. Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha ma'lumotlar olib borish manbalari va joylari (o'quv zali va o'quv xonalari, ilmiy kutubxona, laboratoriya, tashkilot, korxonalar, ilmiy yoki ta'lim muassasalari).

Samarqand davlat universiteti Ilmiy kutubxonasi, o'quv zali, musiqa xonalari, Samarqand davlat san'at kolleji zallari, Samarqand shahar bastakorlar uyushmasi, musiqa va san'at maktablari va hokazo.

7. Bitiruv malakaviy ishini tayyorlash bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar rejasini

	Ishning mazmuni	Taxminiy hajmi (bet)	Ijro mudati	Izoh
1	Masalaning qo'yilishi. Mavzuning dolzarbligi, yechilishi yoki o'rganilishi lozim bo'lgan masalaning mohiyatini yoritib berish (kirish qismi)	2-7 bet	1998 yili davomida	Bajarildi
2	Mavzu bo'yicha ma'lumotlarnin to'plash va tahlil qilish (yordamchi mulohaza va faktlar)	40-45 bet	1998 yili davomida	Bajarildi
3	Olib borilgan tajribalar, tadqiqot ishlari natijalarini tahlil qilish va tartibga solish (paragraf, bob, bo'lim yoki qismlar bo'yicha)	35-40 betlar	1998 may oyida	Bajarildi
4	Olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati bo'yicha xulosa berish hamda tadbiq sohalari va usullariga oid takliflar tayyorlash	10-15 betlar	1998 may oyida	Bajarildi
5	Bitiruv ishini rasmiylashtirish va uning himoyasi uchun zaruriy ko'rgazmali vositalarni (jadvallar, rasmlar, grafilar, diogramma, maket, stend va h.k) tayyorlash	5-7 betlar	1998 may oyida	Bajarildi
6	Dastlabki himoyaga tayyorgarlik ko'rish va himoyaga chiqish matnini tayyorlash	8-10 betlar	1998 may oyida	Bajarildi
7	Bitiruv ishi bo'yicha qo'shimcha maslahatchilar		1998 may oyida	



Umumiy rahbar:

J. Z. Dineurov

Kafedra mudiri:

J. Z. Dineurov

Musiqqa badiiy grafika va mehnat ta'limi fakulteti « Musiqa o'qitish metodikasi va xalq cholg'u asboblari» kafedrasida majlisining 10-bayonnomasidan

KO'CHIRMA

Samarqand
2013 yil 31-may.

Qatnashdilar: kafedra a'zolarining 14 nafari

Majlis raisi: E.K.Djalilov

Kotiba: N.Qurbonova

KUN TARTIBI

«Musiqa o'qitish metodikasi va xalq cholg'u asboblari» kafedrasida 2012 – 2013 – o'quv yilida bajarilgan bitiruv malakaviy ishlarining dastlabki himoyasi va ularni himoyaga tavsiya etish haqida

SO'ZGA CHIQDI : E.K.Djalilov

ESHITILDI: 2012 – 2013 – o'quv yilida bajarilgan bitiruv malakaviy ishlari bilan majlis ahlini kafedra mudiri E.K.Djalilov tanishtirdi va quyidagilarni bayon qildi:

2012-2013 Musiqiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha Kunduzgi bo'lim bitiruvchi kurs talabasi Davronova Gulnoza “O'zbek xalq musiqa merosini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari (Boshlang'ich sinf musiqa darslari misolida)” mavzusida bitiruv malakaviy ishi yozdi. Ilmiy rahbari E.Djalilov.

Talaba mavzu bo'yicha yozgan ishini kafedraga taqdim etgan. Ish yuzasidan ilmiy rahbarning ijobiy mulohazalari ham bor. Shuning uchun so'zni Davronova Gulnozaga bersakda u o'zining bitiruv malakaviy ishining mazmuni bilan tanishtirsa, marhamat..

Davronova Gulnoza bitiruv malakaviy ishining mazmun – mohiyati haqida gapirib, mavzuning dolzarbligi, o'rganish darajasi, ilmiy va Amaliy ahamiyati, amalga oshirilgan ishlar haqida gapirib o'tdi.

Shundan so'ng talabaga dots.F.Obidov va dots.R.Hamroqulovlar savollar berishdi: Davronova Gulnoza berilgan savollarga javob berdi.

Davronova Gulnozaning chiqishi va savol – javoblardan so'ng mazkur bitiruv malakaviy ishini Yak.DAK da himoyaga tavsiya etish haqida fikr – mulohazalar bildirildi.

Ushbu masala yuzasidan kafedra yig'ilishi

QAROR QILDI:

1 «Musiqa o'qitish metodikasi va xalq cholg'u asboblari» kafedrasida Musiqiy ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi. Davronova Gulnozaning “O'zbek xalq musiqa merosini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari (Boshlang'ich sinf musiqa darslari misolida)” mavzusida bitiruv malakaviy ishi talabga javob beradi deb hisoblansin va bitiruv malakaviy ishi Yak.DAKga himoyaga tavsiya etilsin.

2. Davronova Gulnozaning ushbu bitiruv malakaviy ishiga SamDU pedagogika va boshlang'ich ta'lim fakulteti Pedagogika kafedrasida dots.H.Yusupov taqrizchi deb belgilansin.

3. «Musiqa o'qitish metodikasi va xalq cholg'u asboblari» kafedrasida ushbu qarorni tasdiqlash fakultet dekanidan so'ralsin.

Majlis raisi:

E.K.Djalilov

Kotiba:

N.Qurbonova .

MUNDARIJA

Kirish.....	2-7
I-BOB XALQ MUSIQASI XALQNING MA'NAVIYAT MANBAIDIR	
1.1. Xalq musiqa madaniyati xalqning tarixidir	8-15
1.2. Sharq allomalari musiqa tarbiyasi to'g'risida.....	15-18
1.3. Maktab musiqa darslari dasturlarida o'zbek xalq qo'shiqlarining o'rin olganligi	18-28
II-BOB O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARINING PEDAGOGIK ASOSLARI	
2.1. Meros o'z davrining obe'kti intiqosi ekanligi.....	29-33
2.2. O'zbek xalq qo'shiqlari bastakorlar ijodiyotida	33-42
2.3. Boshlang'ich sinf musiqa darslarida o'zbek xalq qo'shiqlarini o'rganish uslubiyati.....	42-48
Umumiy xulosa	49
Foydalanilgan adabiyotlar.....	50-51
Xulosa.....	
Ilova.....	

Kirish

Bugungi kunda yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda, kunlik ijtimoiy xayotimizda ma'naviy va axloqiy qadriyatlarimizning o'rni beqiyosdir. Bu borada asrlar osha xalqdan-xalqqa ustozdan shogirdga o'tib kelayotgan xalq ma'naviyat xazinasining bebaho boyligi bo'lgan o'zbek xalq musiqa merosi bo'lmish xalq qushiqlarining yoshlar tarbiyasida o'lkan ahamiyat kasb etadi. Jumladan xalq donishmandligining go'zal ko'rinishi bo'lgan o'zbek xalq qo'shiqlari yoshlar ma'naviy kamolotning shakllantirishining vositasi sifatida oila, bolalar bog'chalari maktablarda maktabdan tashqari musiqiy mashg'ulotlarda atroflicha o'rganishligi muhimdir.

Yurtboshimiz I.A.Karimov konservatoriya yangi binosining ochilish marosimida so'zlagan nutqida ta'kidlaganidek «Odamzod yozish chizishni, o'qishni bilmasligi mumkin lekin shubha yuqki go'zal kuy ohang va taronalarning xayotbaxsh tasirini har qanday vaziyatda ham sezadi» degan edi. Shuning uchun ham musiqa insonga hamisha hamroh uning tuyg'ulariga ruhiyatiga qanotdir. Xalqimizning milliy musiqa san'ati nihoyatda qadimiyydir. Uning mazmunida xalqimizning milliy ruhiyati, oliy insoniy fazilatlari, badiiy madaniyati istiqlol va mustaqillik uchun kurash hamda orzu umidlari aks etadi. «Musiqqa deb atalmish ilohiy bu mo'jizada shunday bir sehr mujassamki, uni tushunish, ta'sirini sezish uchun hych qanday tarjimonning keragi yuq» degan edi prezidentimiz I.A.Karimov shuning uchun ham uning musiqasi shu qadar qadimiyydir.

Milliy musiqamiz sarchashmalariga tayangan ne-ne hofizlar jahon ko'lamida obro'-e'tibor qozonganlar. Bu musiqiy merosimizni bilishimiz o'rganishimiz kerak.

Uning asosida o'zbek xalqining milliy ruhiyati, istiqlol g'oyalari yotadi. Milliy musiqa ta'limining asosiy maqsadi musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyyatli inson darajasiga yetkazishdan iborat «Yosh qalbgga ta'sir ko'rsatishning ko'plab vositalari orasida musiqa katta o'rin egallaydi. Musiqa va axloq – bu chuqur o'rganilishi va tadqiq etilishi zarur bo'lgan masaladir. Musiqa tufayli odamdai oliyjanoblik, ulug'vorlik, go'zallik tashqi dunyodagina emas balki

uning o'zida ham mavjud ekanligi to'g'risida tasavvur yuzaga keladi. Musiqa o'z – o'zini tarbiyalashning qudratli vositasidir.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf musiqa darslari jarayonida o'quvchilarning manaviy va ahloqiy sifatlarini shakllantirishda o'zbek xalq qo'shiqlarining o'zining ahamiyatli ekanligini unutmaslik shart. Chunki yuqorida yeslatganimizdek, xalq qushiqlari «Xalqning jonli yensiklopediyasidir» Rivoyat qilishlaricha qo'shiq xalq qalbidir, qo'shiqsiz xalq bo'lmaydi.

Biz yoritayotgan mavzu boshlang'ich sinf o'quvchilariga musiqa darslari jarayonida o'zbek xalq qo'shiqlarini atroflicha o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, bu mavzu shu kunning dolzarb muamolaridan biridir.

Ilmiy tadqiqot mavzusining dolzarbligi: Mustaqil Respublikamiz ta'lim tizimidagi qo'llanilayotgan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «kadrlar tayyorlash milliy dasturi»dan kelib chiqib shuni takidlash lozimki, har tomonlama kamolga yetgan barkamol inson o'zida iymon – e'tiqod, mehr-shavqat, vatanparvarlik, do'stlik muruvvat, qanoat va sabr-toqat, sahiylik, samimiylik milliy g'urur kabi fazilatlarni shakllantirish lozim.

Yoshlar haqida prezidentimiz I.A.Karimov shunday degan edilar «Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydivoridir». Haqiqatdan ham yoshlarimiz bilimdon, mehnatsevar, jasorat va fidoyilikka hamisha tayyor turgan holda Vatanimizga sadoqatli bo'lishlari lozim.

Mustaqil O'zbekistonda ro'y berayotgan manna shunday ijobiy o'zgarishlardan hamda yoshlarimizning ta'lim-tarbiyasini yanada takomillashtirish maqsadida biz o'zimizning ilmiy – tadqiqot ishimizning dolzarbligini yana bir marta guvohi bo'ldik.

Ma'lumki o'zbek xalq musiqa merosini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlarini umumta'lim maktab o'quvchilarining boshlang'ich sinflaridan o'rgatib borishimiz kerak bo'ladi, chunki yosh avlodni maktab chog'idan xalqimizdan meros bo'lib qolgan xar xil udumlar, kuy va qo'shiqlarni ular ongiga singdirib borsak xalq merosiga bo'lgan qiziqishlari yanada ortib boradi. Chunki musiqa o'quvchilarni hissiy jarayoniga ta'sir qilib, ularda ijobiy sifatlarni

shakllantirishga asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Barcha fanlar qatori musiqiy ta'limda ham davlat ta'lim standartining joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo'shiqlarida, xonanda va sazandalarning ijodiy faoliyatlari, maqom, shashmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatda o'z aksini topdi. Musiqa san'atining bu kabi imkoniyatlari barkamol avlodni tarbiyalashda, ularning yetuk bo'lib yetishishlarida o'ziga xos va takrorlanmas manba bo'lib xizmat qiladi.

Azaldan, sharq, mamlakatlari jumladan o'zbek musiqa ta'lim – tarbiyasi pedagogikasi va uning mukkamal uslubiyatlari, ustoz va shogird an'analari misolida takomillashib boradi.

Davlat ta'lim standartlari ommaviy xalq musiqa pedagogikasi, professional musiqa ijodkorlari, musiqa ijrochilari katta ashulachilar, maqomchilar, dostonchilar asarlarning elimentar asarlarini o'rgatishni meyorlashtiradi.

Ilmiy izlanishning maqsadi: umumta'lim maktab boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zbek xalq musiqiy merosini o'rganishning jadallashtirish xalq merosiga bo'lgan xurmatini oshirish xar xil laparlar, katta qo'shiqlar, xalq marosimlarida ijro etiladigan qo'shiqlarni o'quvchi yoshlar ongiga singdirishdan va an'anaviy musiqa asarlarini o'rganishning forma va uslublarini ishlab chiqish.

Qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi masalalarni aniqlash vazifasi qo'yiladi:

1. Maktab o'quvchilarining badiiy didni shakllantirish va xalq merosini o'rganish imkoniyatlarini aniqlash.
2. Musiqa darslarida o'quvchilar tomonidan musiqani imosional – hissiy qabul qilishi, musiqa asarlari, uning obrazlarini, kayfiyati, xarakterini pedagogik-psixologig tahlil qilish ko'nikma va malakalarini shkallantirish.
3. Respublikada hozirgi vaqtda musiqa darslarini tashkil qilish holatini aniqlash.
4. boshlang'ich sinf o'quvchilarning badiiy didlarini shakllantirishda o'zbek xalq musiqa merosini o'rganish orqali musiqa darslarining optimal yo'llarini belgilash.

5. O'zbek xalq musiqa merosi va qo'shiqlarni o'rganish hamda ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

6. An'anaviy musiqa asarlarni o'rganish va tahlil qilish uchun ko'rgazmali vositalar va aniq takliflarni ishlab chiqish.

Ilmiy tadqiqot obekti: Samarqand shahar XTBga qarashli 20-sonli umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf musiqa darsi an'anaviy asarlarini o'rganish.

Ilmiy tadqiqot pretmeti: O'zbek xalq musiqa merosini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlarini musiqa darslari jarayonida foydalanishdan iborat.

Ilmiy tadqiqot ishimiz quyidagi optimal uslublardan foydalanishni taqozo qiladi.

1. O'zbek xalq musiqa merosini maktab musiqa o'qituvchisining o'zi chuqur tahlil qilgan holda o'quvchilarga o'rgatishi kerak.

2. O'tiladigan har bir musiqiy darsining asosiy maqsadining aniqligini ta'minlash.

3. Musiqa darslarida ta'lim va tarbiyaviy vositalarning chambarchasligi.

4. Darsdagi har bir tarbiyaviy maqsad va vazifaning izchilligi.

5. Musiqa darsining har bir bo'limi uchun mazkur musiqa asariga ta'luqli o'quv materiallarini to'g'ri tanlash.

6. Eng samarali natija beradigan uslublardan foydalanish.

7. Har bir musiqa asarining o'quvchilarni imosional – hissiy qabul qilish jarayonida individual xususiyatlarni hisobga olish.

8. Musiqa darsining tashkiliy qismini aniqligi.

9. Musiqa darsida individual va jamoa bilan ish olib borishni to'g'ri yo'lga qo'yish.

10. Har bir sinf o'quvchisining individual holatini yaxshi bilish.

11. Olib boriladigan pedagogik uslublarning turlicha bo'lishi mazmundorligi, imosionalligi va tempini aniqlash.

12. Musiqa darsining jihozlanishi (musiqa asboblarining ko'rgazmali vositalari, darsliklari nota plakatlari, texnik vositalar) ta'minlash.

Tadqiqot vazifalari: Mavzuga oid ilmiy –tadqiqotlar, ilmiy – uslubiy adabiyotlarni o’rganish;

- umumta’lim maktablari boshlang’ich sinflari musiqa darslarini mavjud holatini o’rganish,

- ilg’or, tajribali o’qituvchilar bilan mavzu yuzasidan suhbatlar o’tkazish, ularning tajribalarini o’rganish;

- o’quvchilarni o’zbek xalq musiqa merosini kuylashga o’rgatishning samarali ish shakl uslublarini aniqlash;

- o’quvchilarni o’zbek xalq musiqa merosini kuylash malakalarini shakllantirishga yo’naltirilgan faoliyatni samaradorligini ta’minlashga yo’naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot metodlari: O’zbekiston Respublikasining mustaqillik mafkurasi, milliy istiqlol g’oyasi, «Ta’lim haqida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O’zbekiston Respublikasi I.A.Karimovning ma’naviyat, ta’lim, san’at, tarbiyaga oid farmonlar, asarlari, ma’ruzalari; O’zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining shu yo’nalishdagi Qarorlari, shunindek, o’rta asr sharq allomalari, taniqli olimlar, san’at arboblari, ilg’or pedagoglarning mavzu yo’nalishidagi fikr va qarashlari; mustaqillik yillarida O’zbekiston olimlarining o’zbek xalq musiqa merosini o’rganish mavzularida bajargan ilmiy tadqiqotning xulosalar bilan tanishish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: 1. Umumta’lim maktablari boshlang’ich sinf musiqa darslarida o’quvchilarni o’zbek xalq musiqa merosini o’rganish va qo’shiq kuylash malakalarini shakllantirishning o’ziga xos nazariy uslubiy asoslari aniqlandi va umumlashtirildi;

2. O’quvchilarni o’zbek xalq musiqa merosini o’rganish malakalarini shakllantirishga yo’naltirilgan pedagogik faoliyatning samarali tizimi ishlab chiqiladi;

3. O’quvchilarni o’zbek xalq musiqa merosini o’rganish qo’shiq kuylash malakalarini shakllantirish usul, shakllari, vositalari va ularning samaradorligi aniqlandi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijasida umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf musiqa darslarida o'zbek xalq musiqa merosini o'rganish va kuylash malakalarini shakllantirishning nazariy va uslubiy asoslari ishlab chiqildi. Ulardan umumta'lim maktablarida musiqa darslarida foydalanish imkoniyati yaratildi.

Tadqiqotning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy» dasturi, Umumiy o'rta ta'limning musiqiy ta'lim bo'yicha Davlat ta'lim Standarti va o'quv dasturi, Prezident I. Karimovning ta'lim tarbiyaga oid asarlari, ma'ruza va nutqlari, ularda ilgari surilgan g'oyalar, shuningdek pedagogik, psixologiyaga oid manbalar.

Tadqiqotning tarkibiy tuzilishi: Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, 6 paragraf, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ruyxatidan iborat.

1-BOB. XALQ MUSIQASI XALQNING MANAVIYAT MANBAIDIR.

1.1. Xalq musiqa madaniyati xalqning tarixidir

Xalq manaviyat boyligining ko'zgusi bo'lgan o'zbek xalq qo'shiqlarining zarchashmalari tarixan olishlardan boshlanib, xalq ishtimoiy hayoti bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib keldi. Xalq qo'shiqlarining ilk ko'rinishi inson ongining rivojlanishi natijasida mehnat jarayonida vujudga kelgankim mehnatkash xalq mehnat unumidan va tabiat go'zaliklaridan ilhomlangan holda o'zlarining qo'shiq va cholg'u ohanglarini ijod qilganliklari va musiqaviy meros hozirgi vaqtda jahon xalqlarining ham sevimli qo'shiqlariga aylanib qolayotganligining guvohi bo'lamiz.

O'zaro vaqt davomi etgan qattiq mafkuraviy taziqqa qaramay «O'zbekiston xalq avlodidan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va milliy qadriyatlarni hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi»- degan edi prezidentimiz I.A.Karimov jumladan musiqiy tarbiyani ajdodlarimiz asrlar mobaynida yaratgan musiqa merosini o'rganishdan boshlasak. Chunki akademik Kabalevskiy aytganlaridek «Xalq qo'shiqlari xalqning ensklopediyasidir».

O'zbek milliy musiqasini yaxshi biladigan kompozitor N.Miranov shunday degan edi: «O'zbekiston mehnatkashlari o'rtasida she'riyatda, musiqaga va boshqa san'atlarga ishtiyoq zo'r. Butun o'zbek xalqining xarakteridagi bu xususiyat juda yaqqol ko'zga tashlanadi. Deyarli har bir xonadonda dutor, tanbur yoki nay kabi nomli musiqa asboblari topish mumkin o'zbeklar o'zlarining shoir va adiblarni shuningdek hofizlarini ayniqsa hushovoz ashulachilarni juda qadrlaydilar» - deb baholagan. O'zbek xalq marosimlari, yig'inlari, bayramlari shodiyonalari qo'shiqsiz o'tmas doimo bu yig'inlarda xalq qo'shiqlari hofizlari ishtirok etib xalqqa estetik zavq, kishi ruhini g'amdan halos etib, ularga mehnat bobida kuch va manaviy oziq yaxsh etar edi. Musiqa insoniyat ma'naviyat tafakkurning buyuk ne'matlaridan biridir. Har bir xalqning man'aviy madaniyatida erishgan yutuqlari uning adabiyot va san'at, binobarin musiqa san'atidagi betakror ijod nashidalari bilan ham qadrlanadi. Shu manoda xalqimiz o'zining boy milliy va mumtoz

musiqasi zamonaviy ijro san'ati bilan jahon xalqlari madaniyatida o'zining asosli o'rnini egalla kelmoqda o'zbek milliy madaniyatining mustaqillik va istiqlol davrida yuqori oliy cho'qqilarga ko'tarilish g'arbda ma'lum miqdorda o'sayotgan o'zbeklar o'zining tilini madaniyatini yuqotmoqda degan yolg'on bo'xton gaplariga keskin zarba berdi.

O'zbek xalq qo'shiqlari tuzilishi jihatida soda va oddiy bo'lib, musiqa ohanglari dilga yaqin ijro etish uchun ham qulay bo'lib, qo'shiq so'zlari ham manolidir. Xalq qo'shiqlari o'zbek konpozetorlari ijodida asosiy o'rin tutib musiqa san'atining qaysi janrda bo'lmasin ya'niy operadami, bolyetdami, senfonik asarlaridanmi, yoki estrada san'atidami salmoqli ahamiyat kasb etib yoshlarning ma'naviy ahloqiy tarbiyasida ulkan ahamiyatga ega. O'zbek xalq qo'shiqlarini yani ajdodlar merosini atroflicha o'rganish davr talabidir chunki o'zbek xalq qo'shiqlari halqning ma'naviy hazinasidir.

O'rta Osiyo teritoriyasida olib borilgan arxologik qazilmalar aniqlangan tarixiy manbalar shuni aniq ravshan ko'rsatmoqdaki o'zbek xalqining musiqa ijodi boshqa xalqlar, jumladan tojik xalqi musiqa madaniyati bilan mushtarak holda rivojlangan, kamol topgan. Tarixdan ma'lumki O'rta Osiyo xalqlari eramizdan avvalgi birinchi ming yillikdan boshlab teritoriya bo'lina boshlagan, ular dehqonchilik ishlari bilan shug'ullangan so'g'itdar baktiriyaliklar, Xorazimiylar hamda ko'chmanchilar: saklar, massagitlar va boshqa qabilalardan iborat edi. Bu xalqlar haqida ularning madaniyati haqida ma'lumotlar «Avesto» da ham uchraydi. O'tiroq dehqonchilik bilan shug'ullangan xalqlar odatda qadimiyroq madaniyatga ega bo'ladilar. Zotan O'tiroq xalqni tushinib yetkungacha bo'lgan davrning o'zi ancha muddatni talab etadi. Shunga ko'ra bo' xalqlarda musiqa madaniyati qanday darajada ko'tarilganligini aniqlash mumkin. Bundan tashqari xalq poltik ijodi va musiqa san'ati dastlab singzitik holatda bo'lganligini aniqlash mumkin.

O'rta Osiyo dastlab musiqa boblarining asosan uch xili o'rib chalinadigan, puflab chalinadigan va qilli sozlar vujudga kelgan. Baqtiriya Sug'diyona va Xorazm davlatlari vujudga kelgach, musiqa rivojida ham tup burilish sodir bo'ldi.

Xazin va o'ynoqi xalq ohanglari qatorida tanovvon kuylar ham paydo bo'ldi. Bu kuylar ostida hukumdorlarning yurushlari va marosimlari madh etila boshladi.

Zamonlar o'tavirgan davrlar almashavirgan davrlar xalqlarning chigalaranishi qatiroq bo'lib boravirgan. Shunga bog'liq ravishda har bir qabilaning, har bir urug'ning, xar bir xalqning urf-odatlari turmush-tarzi paydo bo'lgan, o'ziga xos sanatlari ham vujudga kelgan. Nafaqat xalq balki har bir shaharning o'ziga xosligi bo'lib bu narsa hatto musiqa san'atiga ham o'z tasirini o'tkazgan jumladan Farg'ona-Toshkent, Samarqand-Buxoro, Surxandaryo – Qashqadaryo, Xorazm ijrochilik, uslublari xususiyatlari mashhur musiqa janrlari shular jumlasidir. Zotan qadimiy Maroqand va Afrosiyob qoldiqlardagi devorga ishlangan tasviriy san'at namunalarida dumbira qubiz, sivizg'a chanqovuz, chang, rubob, tanbur ud singari musiqa asboblarining bo'lishi O'rta Osiyo musiqa san'atining juda qadimiyligidan dalolat beradi. Saromiylar sulolasidan bo'lgan xusrav saroyida yashab ijod etgan Barbad kashf qilgan ud sozi xalqning eng sevimli asbobi bo'lgan. Bu o'rinda bir narsani ta'kidlab o'tishga to'g'ri keladi: Qadimiy maqom kuy tuzimlardagi «Avji turk» ning ifoda uslublari ko'b jihatdan o'zbek baxshilarning kuylash manerasida ko'rinadi.

Arab bosqinchilari O'rta Osiyoga kirib borganda bu san'at shu jumladan musiqa benihoya taraqqiy etganini ko'rib dastlab uni rad etishga urinib ko'rdilar. Ammo tabiatdagi o'sish va rivojlanish to'xtatib bo'lmagnidek, kuy va qo'shiqni ham mann etib bo'lmasdi. Arab ruxoniylari yerli sharoitga moslashishiga ayniqsa musiqa san'atidan ham din yo'lida foydalanishga harakat qila boshladilar ham, Arab olimi A.Isfaxonii «Qo'shiqlar kitobi» asrida takidlashicha Samarqandlik baxshi shoirlar musiqa san'ati nomoyondalari Arab madaniyatiga ta'sir o'tkazganlar, buni Arab musiqasidan ham qahramonlik matnlari, sho'x ohanglar paydo bulganligida ko'rish mumkin.

O'rta Osiyoda samoniylar dinassiyasi vujudga kelgach o'zaro urush-janjallarga barham beradi. Natijada Buxoro, Samarqand, Toshkent, G'azna Mariy singari shaharlardan ilm-fan, adabiyot va san'at rivojlandi. Xudi shu davrda Samarqandlik Abu Abdulloh Rudakiy asossolgan qandachilik an'anasi vujudga

keldi. Arfa va ud tipidagi torli va puflab chalinadigan naysimon asboblari keng tarqaldi. Udsimonlardan kvadra bo'yicha sozlanadigan besh olti juftli torli ud qo'llanilganligi XVII-asr musiqashunos Darvishali Changiyning «Tuxfatussurir» asarida eslatib o'tilgan Farobiyning ma'lumot berishicha musiqa asboblarning har bir o'z karakteriga qarab ma'lum vazifani bajargan janglarda mo'ljallangan cholg'u asbobi avji baland va keskinlari bilan farq qilgan. Tuy va quvnoq davralar uchun muhabbat haqidagi qo'shiqlari hamda raqslar uchun maxsus cholg'u asboblari bo'lgan. San'at o'z mohiyati e'tirofi bilan hamisha tinchlikni ulug'lab keladi. Ammo ezgulik dushmanlari haqiqiy san'at taraqqiyotiga xalaqit berishga harakat qilganlar. Masalan Mug'unlar bosqini natijasida Samarqand Buxoro, Toshkent, Xiva, Urginch singari madaniyat va san'at markazlari vayron qilindi, san'at ahli qirg'inga uchiradi. Natijada bu yerlarda san'at taraqqiyoti sekinlashdi. Biroq XIV asrga kelib ilgargi shuhratini tiklay boshlagan Samarqand ilmi fan, adabiyot va san'at yana gurkirab rivojlana boshladi.

Endi Samarqanda faqat mahaliy musiqa san'ati emas, balki boshqa xalqlarning musiqa san'ati ham yangiray boshladi, bu esa o'z navbatida yerli aholini san'atining gurkirab o'sishiga xizmat qildi. tarixchi xofiz Abru shunday deb yozadi «Xushovoz xofizlar va shirinovoz sozandalar fars namunalari, arab ohanglari, turkiy an'analari, mug'ul ovozlari, xitoyliklar qonunlari va oltoyliklarning ulchovlar asosida kuy cholib qo'shiq aytar edilar». Sharoffiddin Ali Yozdiy esa o'zining «Zafarnoma» asarida XIV asrda xalq o'rtasida xalq qo'shiqlari va ipik dostonlarining ayricha zavq-shavq bilan kuylanganligi va tinchlanganligini qayt etadi. Bu davrda musiqa ijodkorlari va musiqashunoslar ham yetishib chiqadi. Temuriylar saroyida xizmat qilgan Abdulqodir musiqa shakllarini sharxlab bergan risola va qasida karakteridagi «Mayatayin» asarini ijod etdi. U o'z risolasida tarje, peshrav singari musiqa janrlarini izoxlab bergan Buxoro va Xivadagi, Xirotda va Toshkentdagi musiqa an'analari singari o'zimiz yashab turgan Samarqand musiqa an'analari singari ham o'zoq davrlar mobaynida rivojlanib bizning davrimizgacha etib kelgan. Bunday an'analardan biri O'rta Osiyo teritoriyasida keng tarqalgan an'anaviy yig'inlardir. Bunday majlislaro XIV

asrning boshlarida vujudga kelib, ularda asrdan-asrga, avloddan –avlodga o'tib kelayotgan va og'zaki ravishda tarqalgan, shuningdek musiqashunos olimlar tomonidan ko'p marta sharxlangan xalq kishilari maqomlar, ularning yo'llari, usullari ijro etilar muhokama qilinar, yetilmagan o'rinlar qayta ishlanadi va mukammal tarzda ishlab chiqilgan musiqa asari xalq hukumiga havola etilar edi. XV asr musiqashunosi Muhammad Nishopuriy o'zining «Risolai dar ilimi musiqa» risolasida takidlashicha «Majlis Afro'z» deb atalmish yig'in ishtirokchilari xususan Iroq maqomining lodlarini yaxshi bilganlar.

Shunisi xarakterliki, maqomi va xalq qo'shiqlarini professeonal musiqachi yoki ijrochilar balki oddiy xalq ham yaxshi bilgan. Qishloq va shahar aholisining yig'inlari va davralarda maqom alohida bir zavq bilan kuylangan Samarqandliklar Hofiz va Bedil, Jomiy va Navoiy g'azallari bilan aytiladigan maqomlarni zavq bilan tinglash bilan birga ularni ijro eta olganlar ham, shunisi ahamiyatliki, Muovrunahir va Xrosnli siyosiy va iqtisodiy taraqqiyoti hamda tanazuli, madaniy muovrif ishlarning umumiy kulamida rivoj topdi.

O'lug'bek hukmronligi davrida Samarqanda ilm-fan hamda san'atning barcha sohalari har tomonlama rivojlandi, gullab yashnadi. Shu jumladan musiqa san'ati ham o'zidagi imkoniyatlarni yuzaga chiqaraoldi. O'lug'bek buyuk munajjim: matematik bo'lishi bilan birga musiqaning ham hasos bilimdoni edi. Usha davr olimlari va keyingi tarixchilarning takitlashilaricha O'lug'bek «shodiyona» (Bu usul bizning davrimizgacha yetib kelgan) «Usuli ravon», «Usuli Baxri» singari kuylarning muallifi va yaxshi ijrochisi bo'lgan O'lug'bek hukmronligi davrida musiqa bilimi va uning ijrolari majlisi doirasidan chiqib, madrasa programmalariga ham kiritildi. Musiqa haqida qator traktatlar ham yaratildi. Samarqand musiqa san'atining dunyo buylab shuhrat topishida mashhur, hattot, shoir musiqashunos Ali Akbar Samarqandiy, shoir, adabiyotshunos, musiqashunos Boki Jarroh Samarqandiy, shoir adabiyotshunos, musiqashunos Koxiy Movlono Qosim, musiqashunos va tarixchi Mutiribiy Samarqandiy Niyoziy Samarqandiy shoir naychi Sulton Muhammad Udiy Samarqandiy qonun choluvchi Xuja Za'far Qonuniy Samarqandiylarning xizmati kata bo'ldi. O'rta Osiyoda XVI

asrda Shayboniyxon va uning hukumdorlik qila boshlagach san'at olamida ham ma'lum o'zgarishlar yuz berdi. Ma'lumki bu dinastiya vakillari o'zlarini din homiylari deb ataganlar. Har qanday erkin fikrni bug'ishga san'an va madaniyatning barcha sohalarini islomlashtirishga urindilar. Oqibatda adabiyot va san'atda qasidago'ylik, diniy madhiyalar avj oldi. Masalan Samarqandga qo'shni bo'lgan Buxoroda diniy fonatezim kuchayib ketib to XX asr boshlariga uning ta'siri susayadi. Maqom kuylari folklarning boshqa sohaları halqning o'zida ardoqlanib saqlana boshladi.

20 yillar O'zbekiston musiqa tarixining eng yorqin sahifalarini tashkil etadi. Bu yillarda ko'pgina shahar va qishloqlarda zavod va fabrikalarda, kolxozlarda, korxonalar va muassasalarda badiiy havaskorlik to'garaklari tashkil etildi. Bu badiiy havaskorlik kollektivlari musiqa madaniyat obidalarini parokanda qilish va saqlashda umuman musiqa madaniyatining usishida katta rol uynaydi. Shunday badiiy xavaskorlik kollektivlari Samarqand shahri va uning atroflarida ham tashkil etilib, bir necha tarmoqda ish olib bora boshladilar. Ular spektakllar, kuylar, musiqa asboblarning sirlarini o'rganish bayramlarga bag'ishlab konsert uyushtirar edi. «Yoshku», «Kuk kuylak» kabi badiiy xavaskorlik kollektivlari repertuarlarida o'zbek klastika kuylari bilan bir qatorda zamonaviy qo'shiq va raqslar ham keng o'rin olgandi 20 yillarning boshlarida Samarqandning madaniy markazi Registon edi. Bu yerga xalqning ko'b qismi to'planar, chunki barcha savdo tarmoqlari umumiy ovqatlanish muassasalari idoralar aynan shu yerda joylashgan edi. Shuning uchun ham madaniyat sohasi bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar bu joydan klub o'rnida ham foydalanadilar. Mashhur honanda va sozandalarning, xalq qiziqchilarining bu yerga kelishi katta bayram tusini olardi.

20-yillardagi Samarqand musiqa madaniyatining harakterli tomoni shunda ediki bu yillarda badiiy xavaskorlik to'garaklari ancha ko'paydi. Olib borilgan international tarbiyaning natijasi ularning repertuarida sifato'zgarishlari ro'y bera boshladi. Masalan 20-yillarning ikkinchi yarimiga kelib bu to'garaklarda rivalusion qo'shiqlar ko'plab ijro etila boshladi. Ayrim kolleksivlar musiqali spektakllar ham qo'yishga intilganlari faktlardan malum. Samarqandda ayniqsa

«Ko'k ko'ylak» ansambli katta shuhrat qozondi. Bu ansambl repertuari international va inqilobiy qo'shiqlar deklomasiyalardan iborat edi. Ammo muhimi shunda bo'ldiki mazkur ansambl ishtirokchilari shashmaqomning Samarqandga xos uslublarini qadimiy o'zbek klassik ohanglarni «qashqarcha» «Ajam», «Karinavo», «Munajat» va boshqalar yanada rivojlantirib xalqqa inom etdi. Shuningdek tanbur, nay, sivilg'a, qush, surnay vash u kabi samarqandlik sozandalarning sevimli musiqa cholg'u asboblaridan ham ansambl ishtirokchilari keng foydalandilar 20-yillarning oxiri 30 yilning boshlarida bazi havaskorlik kollektivlarining qayta tashkil etilishi, ularning professional kallektivlarga kelib qo'shilishi badiiy havaskorlar harakatining mazmunan boyishiga yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

30-yillardagi badiiy havaskorlik kollektivlari musiqasiga yangi shakllar, yangi ohanglar olib kira olganligi bilan tahsinga sazovordir. Bu yillarda eski o'zbek musiqa cholg'u asboblari qatoriga milliy ohanglarni boyishiga xizmat qiluvchi Yevropa musiqa asboblari ham qo'shildi. Samarqand badiiy havaskorlik kollektivlariga tajribali san'atkorlar rahbarlik qilishar, professional kollektivlarni iqtidorli yoshlar bilan bo'ldirib borishda jonbozlik ko'rsatar edilar. Ulug' Vatan uchushi yillarida Samarqand ham Toshkent singari yirik sanoat va madaniyat markaziga aylandi. Bu yerga mamlakatning shaharlaridan evakuatsiya qilingan sanoat korxonalarini va madaniyat muassalari bilan bir qatorda san'atkorlar, yirik madaniyat arboblari ham ko'chib keldilar. Ularning Samarqandga kelishi shahar va uning atrofidagi madaniy hayotga sezilarli ta'sir ko'rsvtidi. Ular nafaqat o'z san'atlari bilan balki tashkilotchilik qobilyatlari bilan ham Samarqand madaniyatining shu jumladan musiqa san'atining rivojiga uning parokandasiga katta hissa qo'shdilar. Urushning eng qizg'in davri 1942 yilda Frunze shahrida O'rta Osiyo va Qozog'iston mo'siqa san'atining festivali bo'lib o'tdi. Xuddi shunday festivali bo'lib o'tdi, ya'ni 1943-1944 yillarda Toshkentda 1944 yillarda Moskvada sobiq Butinittifoq badiiy havaskorlik kallektivlarining ko'rigi bo'ldi. Bu festival va ko'riklarida Samarqand shahri va uning atrofidagi badiiy havaskorlik kallektivlari, professional bastakor va ijrochilar sovrinli o'rinlarni

olib qaytdilar.hozirgi davrga kelib Samarqand shahrida madaniy maorif ishlari gurgirab rivojlanmoqda zotan hozirgi davrda madaniy maorif sohasida yuzlab mutaxassiz kadrlar mehnat qilmoqda. Buning ustiga folklor-etnografik ansambillarining tashkil etilishi ular tomonidan asriy musiqa va raqs madaniyatlarining xalq orasida targ'ib qilishi quvonchli xodisa buldi. Jonboy tumanida xotin-qizlar, Pastarg'om rayonidagi «Maqom» Narpay tumanidagi «Zilola», Kattaqo'rg'on tumanidagi «Shashmaqom» ansambillari faoliyatini ko'rsatmoqda.

1.2. Sharq allomalarining musiqa tarbiyasi to'g'risida.

Tarixga nazar tashlar ekanmiz o'sha davr mutafakkirlari, olim va faylaso'flari barcha ilg'or fikr kishilarning umuman sn'tga va ayniqsa musiqa san'atiga, uni yosh avlodning tarbiyalashdagi katta ta'sir kuchiga va axloq masalalariga aloxida e'tibor berganliklarini ko'ramiz IX asr oxirida va X asr boshlarida yashab ijod qilgan «Sharq arestoteli» deb nom taratgan buyuk olim Abu nasr ibin Muhammad Farobiy o'zining «Ixtisa al ulum (ilimlarning kelib chiqishi)» nomli risolasida sar'at ilmi haqida bunday yozgan edi «bu ilm ... o'z muvozanatini yuqotgan odamlar xulqini tartibga keltiradi mukamallikga yetkazadi va muvozanatda bo'lgan odamlar xulqini muvozanatda saqlab turadi ». bu ilm tanasining salomatligi uchun ham foydalidir chunki tana kasal bo'lsa, tana to'siqqa uchraydi, ruh ham tusiqqa uchraydi. Shuning uchun ovozlarining ta'siri bo'lgan ruhni sog'aytirish yordamida tana sog'aytiriladi. Mutafakkirlarining san'at kishilarning axloqiy va estetik tarbiyalariga kuchli ta'sir ko'rsatish bilan bir qatorda uning inson salomatligi ruhiy tetikligi uchun ham foydasi benihoyat katta. Olim o'qtiradiki jamiyatning xama a'zosi san'atni bilish kerak, go'zallikni idrok etishga tayyorlangan bo'lishi kerak. San'atkor doimo o'z ustida tinmay ishlashi mahoratini uzluksiz ortirib borishi zarur shunday bo'lgan taqdirdagina ijro etilgan asar yanada ta'sirchanroq va qalblarga kiruvchan bo'lib boradi. Farobiyning «Sof birodaolar maktubi» nomli asarida muzikaning naqadar tasirchanligi haqida

shunday bir rivoyat keltiriladi. «Kunlardan bir kun e'tiborli bir kishi o'z huzuriga musiqachilarni chaqirdi. Ularni mahoratiga qarab o'tirishga taklif etdi, shu payt ular huzuriga juldur kiyingan bir kishi kirib keladi uy sohibi uni eng turiga taklif etadi. Bundan musiqachilar ranjiydilar shunda uy egasi kelgan kishining ulardan ustunligini ko'rsatish uchun undan biror bir kuy ijro etib berishini so'radi. Notanish kishi yonidan qandaydir yoqoch asbobini chiqarib bir biriga ulab shunday bir kuyni chaldiki majlisda o'tirganlar nihoyatda xursand vash od buldilar. Keyin u boshqa kuyni ijro etdi. Ushunchalik ta'sirchan mungli buldiki o'tirganlar undan qayg'uga tushadilar qalblari alamga to'ladi. Sung u yana bir shunday kuy chaldiki o'tirganlarning xammasi uxlab qoldi. Shundan keyin u xonadan chiqib ketdi».

Balki ushbu rivoyatda bo'rtirma yoki mubolag'a ko'proqdir, lekin shuni ishonch bilan aytish kerakki har qanday san'at u chinakkam san'at bo'lsa tomoshaben va tinglovchilarning xis tuyg'ulariga eng nozik qalb torlariga ongi tafakkuri va ruhiyatiga kuchli ta'sir etadi. Kishining uylashga majbur qiladi. Zotan san'atning bunyodkor qudrati ham anashu yerda boshlanadi.

X asr oxiri XI asr boshlarida yashab ijod etgan mutafakkir olim Abu Ali Ibn Sino bosib o'tgan hayot yo'liga bir nazar tashlasak uning keng xalq orasida faqat o'tkir tabib sifatidagina emas balik yuksak adabiyot va san'atga ixlos qo'ygan uni rivojlantirishga o'zining munosib xissasini qo'shgan yerik donishmand kishi sifatida keng mashhur bo'lganligini ko'ramiz. Chunonchi u o'zining «Alshifo» kitobida musiqaning qanday kelib chiqanligi kuy va ohangning bola qalbiga estetik ta'siri haqida qimmatli fikrlarini bayon qiladi. Olimning takidlashicha inson o'z tabiatiga ko'ra musiqaga mayil ayni bir vaqtda musiqani tinglash bu bilan shug'ullanish qanchalik erta boshlansa unda anashu go'zal san'atga bo'lgan mayillik va ixtiyoj ham shunchalik tez va barvaqt rivojlanib boradi. Ibn Sino musiqaning trbiyaviy roli haqida gaprar ekan uni jismoniy tarbiya bilan birga bog'lab olib borishning ahamiyatini takidlaydi. O'z davrining ataqli shoiri Abduraxmon Jomiy ham hamon musiqa san'atining ko'chli tasirini alohida takidlab o'tgan Jomiyning ko'pgina mutafakkir va shoirlar kabi polziya bilan bir qatorda musiqa bilan keng va atroflicha shug'ulanganligi ko'pchilikka ma'lum. U

o'zining musiqa bilan keng «musiqa haqida risola» asarida maqomlar to'g'risida fikr yuritib har bir maqomning kishi ruhiga ta'siri va tarbiyaviy ahamiyati qo'ydagilarni yozgan edi. «Bilki kishiga lazzat baxish etishda iborat umumiy xususiyatdan tashqari ... 12 maqomdan har biri, har bir ovoza va shuba maqsus ta'sir ko'chiga ega ushshoq, navo qudrat hamda janrlilik uyg'otadi va vaholanki ovoza bo'nday ta'sir ko'chiga ega emas. Shubalar orasida ma'lum va nihovandagina ruhga shunday ta'sir etadi». Maqom musiqalarining va umuman san'atning kishiga ta'siri va tarbiyaviy roliga bo'lgan bunday fikr o'z davri uchun katta yangilik edi.

A.Navoiy istidodli shoir va ajoyib insongina emas balki tingi yo'q san'atkor va nozik qalb egasi zarshunos san'atkorlarning doimio ulug'lovchi kishi sifatida ham mashhur.

A.Navoiy o'z davrining buyuk inslopedisiya olimi sifatida usha davr ilim faning diyaril barcha sohalari bilan shug'ullangan. Shu jumladan san'at va axloqiy estetik tarbiya masalalariga ham katta e'tibor bergan. Mutafakkirning chinakam nafis san'atning katta ixlosmandi ekanligi ko'pchilikka ma'lum. Ayn bir vaqtda musiqa san'ati bilan keng shug'ullangan qo'shiq va musiqa tinglashni jondan sevgan va o'zi ham yangi ko'ylar ijod etgan. Shoir o'zining «Majolisun-nafois» asarida musiqa ilmi mashshoqlari hamda xofizlar haqida atroflicha ma'lumot beradi. A.Navoiy takidlashicha san'at ham san'atkor ham naqadar haqqoniy bo'lishi lozim, chunki san'atdagi to'g'rilik va haqqoniylik xalqqa chinakkam foyda keltirishi mumkin san'atkor o'z san'atini xalqqa manzur qila olishi o'z ustida tinimsiz mashq qilishi, doimo jon dili bilan ishlab o'z mahoratini namoyish etishti ya'ni san'at asarini chin qalbdan ijro qili tinglovchilar kunglini shod etish lozim.

Xam ul gavhar bilan kungilni yoritgil

Xam ul shakkar bilan komil cho'chitgil

Kalomi ul gavhardik ayla rangin

Xaddisin ul shakkardik ayla shirin

A.Navoiy tinimsiz ijodiy mehnat qilish bilan bir qatorda mamlakatning turli tomoshalaridan Xirotda keluvchi yosh istidotli san'atkorlarni ijodiga zarur did

bilan baho beruvchi mehribon ustoz ham edi. U ustoz shogirtlariga she'riy mashqlar bilan bir qatorda musiqaviy mashqlar bilan shug'ullanishni tavsiya etardi. Ustoz san'atga chinakkam mehri qo'ygan fidoiy sadoqatli va ayni bir payta ahloqdan pok bo'lgan fidoiy san'atkorlarni doimo ulug'ladi, ulla quvvatladi. A.Navoiyning mehri va himmati tufayli o'z zamonasining zabardas xonanda va sozandasi Mutaxxar Uddiy tengsiz naychi, Ustoz Xasan Navoiy va mashhur san'atkorlar ustoz Qul Muhammad Bastakor Ustoz Muhammad Xorazmiy Mavlono Sohib Balxiy, Shayx Safo Samarqandiy Xo'ja Yusuf Andijoniy, Paxlavoniy Mahmud kabi mutabar zotlarning nomi tarix sahifalarida boqiy qoldi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki sharq mutaffakirlarining san'at, xususan musiqa san'ati uning jamiyat va kishilar hayotida tutgan o'rni yoshlarda estetik va ahloqiy sifatlarini o'stirishdagi ahamiyati haqidagi fikr va qarashlari usha davrdagi katta yangilik bo'lgan holda bizning davrimizda ham o'z qimatini yuqotmay kelmoqda.

1.3. Maktab musiqa darslari dasturlarida o'zbek xalq qo'shiqlarining o'rin olganligi

Umumiy o'rta ta'lim maktabida musiqa ta'limi va tarbiyasining asosiy maqsadi o'quvchilarga musiqa san'atini go'zallik qonunlari asosida o'rganish malakasini singdirish va ularga musiqa madaniyati tarkib toptirishdan iborat. Maskur maqsad o'qituvchi oldiga o'quvchilarga musiqaviy-badiiy did va axloqiy estetik xis tuyg'ularni tarkib toptirish ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ularda musiqa san'atiga nisbatan qiziqishni va musiqaviy faoliyatida badiiy ixtiyojni ko'chaytirish musiqa savodxonligi madaniyatini shakllantirish musiqa davr, hayot inson xis-tuyg'ulari va orzu umidlari ifodasi ekanligi haqida tushuncha hosil qilish kabi qator vazifalar qo'yadi. Dastur maktab isloxatining badiiy estetik tarbiyaga doir talablariga muvofiq ishlab chiqilgan. Bunda jumhuriyat maktablarida vujudga kelgan, ma'lum tajribalarga, milliy musiqamizning boy xazinasiga va uning rangorang an'alariga tayanib ish tutiladi. Dasturning tuzilish prensipida amalda qo'llanib kelinayotgan (eski) dasturdagi musiqa faoliyatlari turlari (musiqa tinglash, xorda kuylash, musiqa savodi, musiqali ritmik harakatlar) asosiy o'rinni

egallaydi. Dasturning ta'lim mazmunini amaldagi an'anaviy dasturning tuzilish tartibi uslubida bayon etiladi. Ammo har bir faoliyat turiga doir berilgan o'quv materiallari va metodik talablar hamda ularning chorak mavzu mantiqidan kelib chiqib o'zaro o'zviy bog'lanish va darsning mazmuni yaxlitligi hamda yagona musiqaviy mantiqiy butunligini vujudga keltirishni taqozo etadi. Shu boisdan boshlang'ich sinflar musiqa tarbiyasiga kopleks yondoshish nuqtai nazaridan kelib chiqib dastur mualiflari musiqa tinglash, xorda kuylash, musiqa savodi musiqa xususiyatiga xos'harakatlar va raqs unsurlarini bajarish darsning bolalar cholg'u asboblari kuy chalib musiqaga ritmik jo'r bo'lish kabi barcha musiqiy faoliyatlariga mushtarak munosabatda bo'lishi maqsadga muvofiq deb topganlar. Zero darsda musiqa tinglash va xorda kuylash asosiy o'quv materiallari sifatida muhim rol o'ynasada ammo musiqiy faoliyatlari barcha turlarining o'zoro mantiqiy uyqunligi natijasidagina o'qitishning rivojlantiruvchi ta'lim va tarbiyaviy funksiyasi asosida chorak mavzularini mukammal o'zlashtirishga muvaffaq bo'linadi. O'quv materialining mavzu-konsentrik prinsipi asosida talqin etilish, vokal xor malokalarini yildan-yilga takomillashib borishga imkon beradi. Shuningdek bolalarning musiqiy idroki malaka va ko'nikmalarini hosil etishda ham ilgari o'tilgan materiallarga qaytib turish vositasida mazkur malaka va ko'nikmalarni yanada rivojlantirish mumkin bo'ladi.

Musiqa tinglash yeng muhim faoliyat turi sifatida butun dars jarayonida yetakchi o'rin tutadi. Zotan o'quvchi darsdagi barcha musiqiy faoliyatlari jarayonida avval musiqani eshitib ijro etadi so'ng tegishli faoliyat turixorda kuylash, notaga kirib kuylash, musiqa xususiyatiga mos harakatlar va raqs elementlarini bajarish, chapak va cholqu asboblari kuy chalib musiqaga jo'r bo'lishni bajargan bo'ladi.

Milliy dastur yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashni taqazo etar ekan. Bu borada musiqa madaniyatimizni o'rni ahamiyatlidir.

Xalq ma'naviy voyligini kelgusi bo'lgan o'zbek xalq qo'shiqlarini o'zbek xalq musiqa madaniyati bilan tanishar ekanmiz biz mehnatkash xalqning tarixiy bosib o'tgan yo'li, urf-odatlari marosimlari, do'stlik, qaxramonlik vatanga

muxabbat, sof-sevgi, adolat to'g'risida fikrlarni xalq to'g'risida keng shunga ega bo'lamiz.

Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini xamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvofiq bo'ladi» degan edi. I.A.Karimov jumladan musiqiy tarbiyani ajdodlarimiz asrlar osha yaratgan musiqa madaniyatini o'rganishda boshlashimiz kerak. I.Karimov «O'zbekiston» XXI asr bo'sag'asida Ch.(nashriyoti) 1997 yil 137 bob.

Shunday ekan xar bir millatni musiqa madaniyati xalq musiqa merosi bilan chanbarchas bog'langani uchun xar bir millat san'atini rivojlanishi uchun tub manba bo'ladi deb xulosa siqarish mumkin. Xozirda jaxonshunos axamiyat kasb etib kelayotgan o'zbek musiqa madaniyatining asrlar osha sayqal topib tarbiyaviy axamiyat kasb etib kelayotgan musiqa madaniyatimizni o'rni axamiyatlidir.

O'zbek musiqa madaniyatini ko'p asrlar tarixiga ega ko'pincha xonanda va sozandalar avlodining faoliyatidan qaror topgan xalq xamda og'zaki an'analarga musiqa san'ati bu xalqda guvoxlik veradi. Moddiy madaniyat yodgorliklarni tasdiqlashiga bugungi O'zbekiston teritoriyasida O'rta Osiyo xalqlarining yaratgan qadimiy sivilizatsiya mavjud bo'lgan arxiyologiya malumotlari tasviriy san'at asarlari minyaturyalar sharq-shunos olimlarning yangi tadqiqotlari xamda o'rta asrlarga yashab ijod etgan O'rta Osiyo olimlarining musiqiy risollari o'zbek xalqi musiqa madaniyati taraqqiyotini tarixiy rivojlanishiga bilimiga yordam beradi. O'zbek xalqi ajdodlarini musiqa sar chashma O'rta Osiyo xududiga yaasnagan qardosh xalqlar ijodi bilan chanbarchas bog'liq bo'lgan. Bu musiqa asarlari XIX asrlarga (yangi bu xalqlar) aktiv chigaralanganicha o'ziga, bir butunlikni iboda etadi. Keyinchalik o'zbek, tojik musiqa madaniyatini rivojlantirish uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladi. Kadrlar tayyorlash milliy modelida oliy talimning asosiy o'rni tutishini yaxshi bilamiz jumladan shunday ekan oliy ta'lim zamirida musiqa fakultetlari amalga oshirilayotgan musiqa tarbiyasi jarayoning asosiy poydevorini sharq mutafakirlari xam asosiy o'rin tutishini unutmash kerak Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xo'ja Baxuddin, Naqshbandiy Xo'ja Axmad Yassaviy, Al –

Xorazmiy Beruniy Ibn-Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zaxriddin Bobur, va boshqa ko'plab ajdodlarimiz. Milliy madaniyatimizni rivojlantirishga imkon xissa yoki yalinganda tavush mayinlashib natijada so'z tasiri chiqadi va o'z maqsadga erishadi.

Musiqqa darslari jarayonida o'zbek musiqqa merosining o'rdanish orqali musiqiy didni shakllantirish. Musiqqa san'ati madaniy xayotimizda keng urin tutgan va inson shaxsi shaklanishida muxim axamiyat kasb etadigan san'atlardan biridir.

Milliy istiqlol mafkurasini yaratish va jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotimizning taminlashda har bir shaxsning madaniyati uning umuminsoniy va milliy qadriyatlarni rivojlantirishda bo'lgan munosabati sadoqati fidoyiligini taminlash mezoni axamiyat kasb etadi. Yosh avlodni yuksak madaniyatini uning umuminsoniy va milliy madaniy qadriyatlarini rivojlantirishga bo'lgan munosabati sadoqati va fidoyiligini taminlash mezoni axamiyat kasb etadi. Yosh avlodni yuksak madaniyatli estetik didli yuqori darajada rivojlangan komil insonlar qilib tarbiyalashda musiqqa san'ati kunli ijtimoiy xayotimizda ulkan tarbiyaviy axamiyat kasb etib kelmoqda.

«Kadrlar tayorlash milliy dasturi va ta'lim iug'risidagi qonun» talabalarda ta'limning amaliyot bilan xamkorlikda olib borishga katta axamiyat berilgan.

Ushbu talabalarda kelib chiqib musiqqa talim tarbiyasini xozirgi zamon talab darajasiga kutarish o'quvchilarning bush vaqtlarini unimli utkazish maqsadida sinfdan va maktabdan tashqari musiqiy mashg'ulotlarini axamiyati juda kattadir.

Malumki sinfdan va maktabdan tashqari musiqiy tarbiyaning ommaviy ishlar shakilining maqsadi talabalarining mma'naviy-axloqiy extiyojlarini qondirish ularni bush vaqtlarini unimli utkazish o'quvchilarini yalpi tarzda musiqiy mashg'ulotlarga shakllantirish ularning dunyoqarashini badiiy saviyasini bilim tarbiyasining mazkur shakllda o'quvchilarning dunyoqarashini tekshirish qiziqishi musiqiy asarlarni qabul qilishi qaxramonlarni obrazlarining ijobiy salbiy tomonlarini taxlil qilish kabi xususiyatlarni oshiradi.

Amaliyotchilar musiqa darslarini yillik ish dasturini tuzish bilan birgalikda musiqiy mashg'ulotlarini xam yillik ish dasturini tuzish va xujjatlarni yuritishni bilashlari lozim.

Pedagogik amaliyot o'tayotgan talabalar musiqa darslarini o'qishi bilan birgalikda sinfdan tashqari musiqiy mashg'ulotlarni xam raxbari xisoblanadi.

Xozirgi davr talabidan kelib chiqqan holda musiqa mashg'ulotlarini mazmunini milliy musiqa merosi ustuvorligida ishlab chiqan xolda ijodiy yondashib yangi dastur asosida mashg'ulotlarni o'tishi lozimdir. Musiqa mashg'ulotlarda o'quvchilarni ma'naviy – axloqiy dunyoqarashlarini ijobiy fazilatlarini tarkib toptirish asosiy maqsad qilib quyilgan. Demak oliy o'quv yurtlarida bo'lajak musiqa o'qituvchilarni tayyorlashda barcha fanlar qatori «Musiqa tarbiyasining asosi esa musiqa darslari va darslardan tashqari tarbiyaviy ishlar» xisoblanadi. Xalq ta'limi tizimidagi musiqa tarbiyasining mazmuni qayta tiklash jarayonda milliy musiqamiz tarixini madaniy merosimizni boy an'analarimizni xar tomonlama o'rganib yosh avlodni ma'naviy estetik va axloqiy fazilatlarini tarbiyalab shakllantirish vazifasini musiqa o'qituvchisi zimmasiga maqsad qilib qo'yadi. Demak musiqa san'atining nazariy va amaliy soxalaridan bilim va malakalariga ega bo'lish bilan birga milliy musiqamiz madaniyatimiz va ma'naviyatimiz xaqida puxta bilimga ega bo'lishimiz lozim.

Shu bilan bir qatorda musiqa tizimini rivojlantirishga olimlar, vastakorlar ytuk tajribali o'qituvchilar o'z dasturlari. Darsliklari tavsiyanomalar qo'llanmalar bilan o'z xissalarini qushmoqdalar.

Amaliyotni musiqiy mashg'ulotlarni strukturasi har bir o'qituvchining bilam va malakalariniovoz diapazoni qobiliyati qiziqishi xisobga olinadi. Dastur choraklarga, mavzularga bulinib umumdidaktik prinsiplar asosida tuziladi. Dasturning bosh mazmuni musiqa va xatlardir. Shu boisdan musiqa orqali xayotni o'rganish bilan birgamusiqaaning xayotdagi o'rni xam o'rganiladi. Kalendar mavzuli reja bir yilda ikki marta tuziladi va maktab raxbari tomonidan tasdiqlanadi. Boshlang'ich va yuqori sinflar uchun aloxida –aloxida kalendar mavzuli reja asosida o'tiladigan 1 soatlik mashg'ulot uchun reja konspet tuziladi.

demak mazkur bilim va malakalar kompleksi musiqa ta'liminingo'quv yili uchun aniq belgilangan chorak temalari asosida mashg'ulot turli musiqa faoliyatlarinibilangina amalga oshirishi yangi dasturlarni asosiy prinsiplaridir. Yuqoridagi maqsadlarni amalga oshirish uchun musiqiy mashg'ulotlarda maqsad musiqiy mashg'ulotlarga o'qituvchilarni qiziqtirish, shuni qayd etish kerakki mashg'ulotning tuzilishi barqaror tematik sxemada balki tematik plandagi aarlarni o'zlashtirish uchun musiqa faoliyatinig qaysi turi bilan tugatilsa ham bolalarni musiqaga va mashg'ulot mazmuniga kuproq qiziqтира olish va pedagogik maqsadga samaraliroq erishish mumkinligi muximdir. Bunda mashg'ulotning ham tarkibiy ham mazmun jixatdan mantiqiy bir butunligiga erishiladi. Demak mashg'ulotda qo'llaniladigan har bir musiqiy faoliyat turi mashg'ulotning qo'llaniladigan har bir musiqaviy faoliyat turi mashg'ulotning ajralmas mantiqiy bo'lagi bo'lib aniq pedagogik maqsadga qaratilmog'i lozim shunday qilib mashg'ulotlarda bir necha pedagogik maqsad qaratilmog'i lozim. Shunday qilib mashg'ulotlarda bir necha maqsad belgilanadiki ularning har biri yoki bir nechasi faoliyat turlari orqali amalga oshiriladi. Ular qo'ydagicha bulishi mumkin.

- musiqaviy qobliyatini rivojlantirish;
- musiqani edrok etish malakalarini ustirish;
- kuylash malakalarini ustirish;
- musiqani ritmik xis qilish bunda muvofiq xarakatlar qilish bilan ijrochilik qobliyatlarini ustirish;

Musiqaning badiy g'oyaviy mazmun vositasida bolalarda nafosat axloqiy tarbiyasini takomillashtirish natijasida bolalarda musiqa xaqida mushoxada yuritishning asoslarini vujudga keladi. Shu bilan birgalikda musiqa ta'limi milliy va ilmiy asoslari mazmuni tuzilishi va tabaqalanishi musiqa raxbariga qo'yilgan zamonaviy talabalar va o'tiladigan mashg'ulotlarining ilmiy-uslubiy tomonlari bayon etilishi va mashg'ulot qatnashuvchilari tomonidan o'zlashtirishlari shart.

Musiqqa tarbiya ishlarida iqtidorli o'quvchilarga aloxida e'tibor berish tajribali raxbarlar ishlarini amallashtirish, amalga oshirish qayt etilgan.

Demak o'quvchilarning axloqiy ruxda tarbiyalashning asosiy yo'llarida biri mazmun va ular qalbida o'z xalqining shon-sharafli o'tishi bilan faxrlanishi, g'ururlanish, iftixor tuyg'ularini uyg'otish insonparvarlarga, kattalarga xurmat do'stlik, mehnatsevarlik, axillik va boshqa ijobiy xislat va fazilatlarni shakllantirishdan iborat shuning uchun musiqa raxbari o'z kasbiga va bolalarga mehr quygan madaniyatli keng dunyoqarashga ega bo'lmog'i kerak bo'lgan shaxs. U pedagogika – psixologiya, metodika, estetika nazariyasi milliy musiqamiz qonuniyatlarni madaniy merosimizni har tomonlama chuqur musiqa nazariyasining amaliy soxalardan chuqur bilimga ega bo'lmog'i lozim. Yangi dastur va konspektida mashg'ulot uchun o'qituvchi oldiga qo'yilgan barcha maqsad va vazifalarni amalga oshishga tinimsiz qilishi kerak chunki maktab va maktablardan tashqari muassasalar xayotda busibatning faoliyatda nixoyatda beqiyosdir. Demak musiqa raxbarlarning mashg'ulot jarayonida va sinfdan tashqari ishlarida o'zining ma'naviy va axloqiy qiyofasini o'quvchilarda barkamol yosh avlod fazilatlarini shakllantirishga yordam berish lozim.

Pedagogik amaliyotchilar o'zlarini faoliyati jarayonida o'qituvchilik kasbni varcha jixatlarini o'zlashtirishlari o'zlariga ta'luqli xujjatlarni yuritishni bilishni taqozo etadi.

1. Musiqa o'qituvchisi yillik ish rejasi.
2. Darslarni taxlil daftari
3. Kundalik daftari
4. Tarbiyaviy ish rejasi
5. Konspekt daftari
6. Sinfdan tashqari musiqiy mashg'ulotlar yillik ish rejasi
7. Sinf jamoasiga tavsifnoma
8. Bir o'quvchiga tavsifnoma

Xulosa sifatida shuni takitlashimiz lozim maktabdan tashqari musiqiy mashg'ulotlarni tarbiyaviy jixatlardan xisobga olib yoshlarni axloqiy estetik tarbiyalashda turli xil pedagogik texnologiyalarni joriy qilishni va ta'lim tarbiyasini yondashish taqozo etidi.

Ma'naviy boylik tashqi go'zallik bilan uyg'unlashib odam o'zi ulug' va mutabar zot ekanini hamma xati – harakatlari faoliyati namayon etib turadi.

Shu manoda madaniyatsiz jamiyat yo'q bulishi xam mumkin emas. Mustaqil O'zbekistonimizda ruy berayotgan mana shunday ijobiy o'zgarishlardan xamda yoshlarimizning ta'lim tarbiyasini yanada takomillashtirish maqsadga biz o'zimizning ilmiy tadqiqot ishlarimizni dolzarbligini yana bir marta guvohi bo'ldik.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarimizda dolzarbligi.

Ma'lumki musiqa san'ati ayniqsa musiqa darslarini o'quvchilarni ma'naviy dunyoqarashni shakllaantirishni eng asosiy omillardan biri xisoblanadi. Musiqa darsi san'ati darsdir, bu kishilarni emotsyanal xususiy jarayoniga. Ilmiy maruzamizning dolzarbligi barkamol avlodni dunyoqarashni shakllantirish xamda kamol toptirish xozirgi vaqtning eng dolzarb masalasi bo'lish bilan birga Davlat axamiyatga ega bo'lganligi ozod va obod vatan barpo etishdek ulug' va oliyanob maqsadga erishish uchun jasurlik fidoyilik ruxida tarbiyalash prizedentimiz I.A.Karimovning olib boriladigan izchil siyosatini chuqur targ'ib chuqar qilish o'zbek xalqining ulug' mutafakirlari qutlug' merosdan yoshlarimizni baxraman qilish milliy istiqlol g'oyalariga seksiz sadoqat ruxida tarbiyalash boy tarixiy ilmiy falsafiy madaniy va axloqiy merosga buyuk qadriyatlarga xurmat milliy g'urur kabi xislatlarni oshirish tarbiya san'ati axloqning birligi va shu qadriyatlarni baxolash nazariyasiga milliy o'zligini anglash orqali yuksak yo'lni bosib o'tgan ilg'or Davlatlarning tajribasidan iboratdir.

O'zbekiston kelajagi buyuk davlat ekan bu boylik xam moddiy xam ma'naviyat jixatdan kamolotga erishishni taqozo etadi. «Agar mamlakat o'z qonunchiligida xaqiqiy muxabat yuksak axloq barkamol aqlga ega bulmasa uning qismati xalokat va parokandalik bo'ladi». – deb bashorat qilgan Abu Nosr Farobiy.

Shuning uchun mamlakatimiz yuqotilgan ma'anviyatimizni tiklash ma'naviy inqirozni tuxtatish poklanish va ma'naviy kamolga erish yo'ldan bormoqda

Inson ma'naviyatimizning yemirilishi yadro fojiasida ham qurqinchiliroqdir. Ma'naviyat burilib tanozol yoqasiga kelib qolganimizni faxmlashimiz mushkul

ishlardir bugungi ma'naviy poklanish kelajak avlodning varkamolligi zaminidir. Bugungi kunda ma'naviy buzilishimiz qanchalik kuchli bo'lsa kelajak avlodning jismoniy va ma'naviy salomatligiga shuncha zarar yetadi. shunga ko'ra biz bo'gungi kun ma'naviyatini yaxshilamasdan turib kelajakda sog'lom avlodni shakllantira olmaymiz.

Ma'naviy muxit sifatida shaxsni ham butun bir avlodni ham muayan yunalishda shakllantiridi va tarbiyalaydi, ularni nomaqul tasirlardan ximoya qilishga urinadi.

Ma'naviyatimiz nisbiy mustaqilligi uning ijtimoiy borliqdan oldinga qarab kelishda ham namayon bo'ladi. Masalan o'tish ma'naviy merosimizning ijobiy tomonlarini o'zlashtirish xozirgi davrni to'g'ri tushunish kelajakni buyukligiga ishonch va kelajak xaqida to'g'ri bashoratlar berishdir.

Ma'naviyat tushunchasining tarifi biz ba'zan osongina xal qilib qo'ya – qolmoqchi bulganimizdek odiy lissoniy jumboq emas yechilmaydi. Ma'naviyat – inson qalbida ko'ngil ko'zqusida aks yetgan xaqiqat nuridir deyilgan tarif ramziy tarifdir. Ma'naviyat haqida har qancha gapirish yozish mumkin.

Ammo ma'naviyat falsafa emas dunyoni bir qancha izoxlab berganimiz bilan qonun qoidasini aniqlab tushuntirib berganingiz bilan siz aqli bilimdon mantiqdan fikrlar uchun odam sifatida qadirlashimiz mumkin. Ammo bular sizni ma'naviyat barkamol insoni tarbiyalashdan dalolat bermaydi. Ma'naviyatimiz kelajak yo'ksak chunki, uning robortlar emas insonlar yaratadi. Insonlar ongi qanday bo'lsa mamlakat kelajagi ham shunga yarasha bo'ladi. Eng katta boylik inson ruxiyatiga yashiringan. Ana shu sarmoya tobora kengroq miqiyosda muomilaga kirgan sari xosil umumliroq bo'ladi.

Darsda bevosita o'qituvchi ijrosida yoki gramyozuvdagi asarlarni tinglash vositasida bolalarda musiqaning turli janrlarini shakl va mazmun jihatidan to'g'ri anglash ularni badiiy g'oyaviy jihatdan mukammalari shakllanadi shuning uchun dastur mazmunida musiqani tinglash, o'rganish jarayonida darsning mantiqan bir butunligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Aynan musiqa tinglash vositasida bolalar turli musiqa janrlari bilan birgalikda cholg'u asboblari milliy va

boynalmilal namunalari orkestr tor va ovoz turlari hamda ijrochilar bilan tanishadilar shu bilan birga musiqa haqida tegishli bilimlarga (janrlar, ugistorlar, kontrast, kuy, jo'rlik, ritm surat, dinamika va boshqalar) ega bo'ladilar.

Dasturda o'quvchilarning musiqiy savodxonligining asosi sifatida musiqa savodiga ham e'tibor kuchaytirilgan. Ammo u darsning mustaqil elementi sifatida emas balki musiqa faoliyatining barcha turlari ayniqsa musiqa tinglash va xorda kuylash, asarlarni oddiy musiqiy pedagogik tahlil jarayonida o'rganish va ularni ongli idrok etish davomida amalga oshadi. Musiqa savodi turkumiga faqat bolalarning amaliy faoliyatlari uchun zarur bo'lgan nota elementlari emas balki musiqa janrlari uning tuzilishi va shakllari cholg'u asboblari, ijodkorlar va ijrochilarga doir bilimlar ham kiradi musiqa savodi darsining ko'proq ta'limiy funksiyasini bajarmog'i lozim shuning uchun musiqa savodiga doir beriladigan har bir yangi atama tushuncha yoki nazariy element musiqa faoliyatining barcha turlari amalyotida qo'llanib o'quvchining musiqiy bilim doirasi boyitib borishi lozim. Bu esa o'quvchining musiqiy savodxonligi tarkibi toptirishda asosiy rol o'ynaydi. Musiqa jonli san'at turi sifatida davr hayot, tabiat va inson his tuyg'ulari, orzu-istaklarining badiiy imkon bo'lganligi sababli, musiqa va hayot mavzui dasturning bosh merosi asosiy maqsadi va mazmuni sifatida muhim o'rin tutadi.

Bu muhim mavzuni madaniy hayotimiz bilan uzviy bog'langan va klassik musiqa zamirida o'rganish esa yangi dasturning asosiy mezoni hisoblanadi. Musiqaning hayotiyliigi o'qitishda uning turli musiqiy xarakterlari (chalish, kuylash, raqsga tushish ritmik haraktlar, marsh musiqasiga qadar tashlab yurish, yugirish va boshqalar) bilan ham bog'liqligidadir. Shuning uchun har bir chorakda o'rganiladigan asarlar misolida musiqa xususiyatiga mos turli harakatlar bajarish va bolalar cholg'u asboblari (doirachalar, uchburchak, shaqildoqlar)da chalib musiqa jo'r bo'lish ko'zda tutiladi. Nota bilan kuylash va cholg'u asboblarida chalish hamda turli harakatlar bajarishga doir maqsad va vazifalar har bir chorak materiallari zamirida yotadi. Musiqa tinglash har bir sinf dasturining oxirida beriladi. Dasturni mazkur uqtirish xato yangicha dars o'tishga metodik tavsiyalar, yillik o'quv materiallarining taxminiy mavzu rejasi, dars ishlanmalarining taxminiy

namunasi yillik o'quv materialini nota adabiyotlari bilan birgalikda har 1-sinf o'quv metodik qo'llanmasida bayon etib boriladi.

Mazkur dasturni asosi amalga oshirish maqsadida o'qituvchiga ayrim asarlarni musiqiy-badiiy jihatdan chorak mavzuga muvofiq bo'lgan asarlar bilan almashtirish va har bir darsning mavzu rejasini ijodiy tarzida tuzish imkonini beradi.

2-bob O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARINING PEDAGOGIK ASOSLARI

2.1. Meros o'z davrining obyektini inikosi ekanligi haqida

Kiyingi paytlarda xalq musiqasini o'rganishga jiddiy ahamiyat berilmoqda o'zbek xalq musiqasi merosini o'rganish jahon miqyosida tarqalmoqda. Xususan 1978 – yil oktyabr oyida Samarqand shahrida o'tkazilgan «Yaaqin va o'rta sharq xalqlari professional musiqasining an'analari va zamonaviylik» mavzusidagi xalqaro anjuman yoki 1980 – yil may oyida Xivada o'tkazilgan «Og'zaki an'anaviy musiqada professionallik musiqasi san'ati bo'lish xalq qo'shiqlari va maqomlarning amaliy, nazariy va noyob xalq professional musiqasi san'ati bo'lish xalq qo'shiqlari va maqomlarining nazariy va tarbiyaviy imkoniyatlari izchil tahlil qilinib o'zbek xalq qo'shiqchilik san'atini propaganda qilish masalasida amaliy tadbirlar kelishib olindi». Maqomlar va xalq qo'shiqlarini mohiyatini tug'ri tushunishi uchun avvalo oddiy xalq qo'shiqlarini sevish, musiqasi san'atini qadrlash eng muhimi madaniy merosga etiqod qo'yish lozim. Maqom oddiylikdan murakablikka o'tishni talab qiladi. Oddiy xalq qo'shiq va kuylarning qalbga olam-olam zavq bag'ishlovchi sehrini bilmagan odam maqomdan murakkab musiqiy mmo'jzasining estetik zavqini xis etaolmaydi. O'zbek musiqashunosi Yunus Rajabiy o'zining «Musiqasi merosimiz haqida» nomli asarida maqomning ijrochilik yo'llari xalq ohanglari bilan bog'liqligi masalasiga to'xtalib «Maqom yo'llari bilan xalq musiqasi» asarlari orasida hech qanday farq yo'q, xalq musiqasining kichik yoki yirik shakldagi hamma turlari maqomlarning u yoki bu qismiga ohangdosh degan edi. Xalq qo'shiqlari o'zining musiqiy ravonligi va ritmik ko'rinishi bilan xalq og'zaki ijodining professional ko'rinishi bo'lgan ko'p qismli vokal-cholg'u asari bo'lmish maqomlar bilan ham uzviy bog'liqdir. Maqomlar asosan ko'p qissimlilik, ovoz diapazonining kengligi mashtabining kattaligi va ijrochilikdagi murakabligi bilan o'zbek xalq qo'shiqlaridan farq qiladi. Maqomlarning ijrochilikdagi murakabligi va hozirgi o'rta maktablarda musiqasi darslari programmasida atroflicha tahlil qilib o'rgatilmashligi uchun ham bu nodir musiqasi merosimizni yoshlar yaxshi tushunmaydilar. Chunki xalq qo'shiqlari, maqomlar

xalq manaviyatida ijobiy o'rin tutganligi uchun ham bu musiqiy meros asrlar osha og'izdan tushmasdan kuylanib kelindi. Musiqa darslarida xalq og'zaki professional san'at namunalari bilan tanishtirib borish o'quvchilarga ma'naviy merosga samimiy muhabbat uyg'otadi, yoshlarni xalq qo'shiqlarini sevish bobolarimiz ideallari kuylagan barxayot misralarni qadrlashga o'rgatadi. Yoshlarni ma'naviy merosning doimiy ta'siri vositasida tarbiyalash zarur.

Xalq qo'shiqlarini sevish musiqa merosining janrlari, xususan maqom san'atining tushunish undagi musiqiy nafislik, poltik ramzlar nozikligi, maftunkor va jozibali ohanglardan bahraman bo'la olish qobiliyatini vujudga keltiradi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, musiqa merosimiz xazinasidagi turli janrga mansub asarlar o'z milliy xususiyatlarni saqlagan holda zamon bilan hamnafas bo'lib yashamoqda; binobari musiqa san'atining tarbiyaviy imkoniyatlari bobida ham yangi imkoniyatlarkashf etadi.

Musiqa va tarbiya bir-bir bilan uzviy bog'liq hodisa sanaladi. Negaki «O'rta», «Munojat»ni sevib tinglagan odam hych qachon birovg'a yomon ko'z bilan boqmaydi. Demak musiqa odamda insoniylik, samimiylik, birodarlik iuyg'usini kuchaytira oladigan mo'jizakor kuch, musiqasining yaratilishi va taraqqiyoti xalqning sotsial iqtisodiy turmish tarzi, falsafiy estetik qarashlari bilan bog'liqdir. Xalqning yaxshi kunlari ham yomon kunlari ham kuy bilan birga o'tadi. Xalq donishmandligining go'zal ko'rinishi bo'lgan o'zbek xalq musiqa merosi yoshlar dunyoqarashiga muhim tarbiya vositasi sifatida musiqa maktablarida kashoflar saroylarida keng o'rganilmoqda. Xususan o'zbek xalq musiqa merosida qo'shiq eng demokratik janr bo'lib xalq psixologiyasi, ruhiyatini xalq hayoti va dunyoqarashi haqida mukammal ma'lumot mavjudki bu ohanglarni idrok etish uchun o'sha xalq ruhiyatini tushunish kerak.

Mashhur pedagog B.A.Suxamliskiy o'zining «Tarbiya» to'g'risida to'xtalib «musiqa tufayli insonda oliyjanoblik, ulug'vorlik, g'uzallik tashqi dunyodagina emas, balki uning o'zida ham mavjud ekanligi to'g'risida tasavvur yuzaga keladi. Musiqa o'z-o'zini tarbiyalashning qudratli vositasidir» degan edi. Musiqa sohasida malakali mutaxassislarning yetishmasligi ham darsni samarali tashkil etishda

to'sqinlik qilmoqda o'qituvchilarning aksariyati cholg'u asbobini so'zlash tovushlarning past balandligini sezish ritmik idrok etish, tovushlarning garmonik jarangligini his qila olmaydilar. Bu esa ularda ta'limning tub asosini va yo'nalishini tashkil etishning asosini va yo'nalishini tashkil etishning bosh mezonimusiqa talantning yo'qligi demakdir. Bunday o'qituvchilar boshlang'ich sinflarda dars berishdan, binobarin o'quvchilarning musiqiy estetik ruhda tarbiyalashga qodir emas.

Turli yo'nalishdagi tarbiya ishlarini nihoyatda tushunarli sodda va yuksak metodik darajada tashkil etib bolalarga ilk yoshidayoq mehnat malakalarini jismoniy tarbiyani singdirish, ularda musiqa va san'atda atrof va tevarakdagi obyektiv dunyoga did bilan qarashni shakllantirish kerak. Musiqa san'ati xalq ijodining bir qismigina emas inson ruhining pedagogik va rahnomasidir. Musiqa inson dunyoqarashini shakllantiridi o'z kuchiga ishonish ruhini tiklash vaqtinchalik muvofaqiyatsizliklar oldida o'zini yuqotib qo'ymaslik kabi hislatlarni tarbiyalaydi. Musiqa kishilarni birlashtiruvchi buyuk kuch. nafis kuy tinglayotgan kishi ijrochi qalbida uchayotgan hissiy g'alayonlarga sherik bo'ladi. Musiqa asarining g'oyaviy idialini ko'z oldida gavdalantiradi. Musiqa kishini hayotga chanqoqlikka o'rgatadi, mehnat unumini oshiradi. Insonning hayotga bo'lgan siyosiy, estetik qarashlari shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Inson musiqasiz yashashni tasavvuriga sig'dira olmaydi.

O'tmishda reaksiyon din peshvolari musiqa san'atidan bahramand bo'lishni taqiqlar, musiqa bilan shug'ullanishini kufr ish deb hisoblashlari. Ayni paytda Lutfiy, Zomiy, Fuzuliy, Hofiz, Navoiy, Mashrab, Bobir, Nodira hazallari bilan aytiladigan maqomlarning amalashuviga zo'r berib to'sqinlik qilishdi. Chunki bu shoirlar asarlarida insoniylik adolatparvarlik, xalqchilik, kabi gumanistik motivlar kuylanar go'zal yor orombaxsh tabiat manzaralari tasvirlanardi. Jannat va u dunyo «lazzati» to'g'risidagi reaksiyon g'oyalar xalqqa olam-olam zavq baxsh etardi. Boy va shayxlar esa xalqning fikrini zaxarlash yo'lida borib razolat va jaholat tartibini saqlab qolish uchun har handay san'atning rivojlanishiga salbiy ta'sir qildi. Buni Farg'onalik Fozil Ali Vaxob o'g'ilining din nazoratchisi mullo Shokir Aliboy

o'g'ilining san'at haqidagi savoliga bergan javobidan anglash qiyin emas bu javobnoma «Ixlos» jurnalining 1915- yil 21-sonida bosilgan bo'lib quyida bir parchasini aynan keltiramiz: «ma'lum bo'lgaykim, taganmij yani sadov a nag'ma hofizlik mutloqo xaromdir. Xox tanburda, xox dutorda va rubob, qonun, surnay, qo'shnay, childirma, karnay, garmon, gramafon shunga o'xshash odatlar bilan birga bo'lishi, xox ovoz bilan bayot va oshqona g'azallarini forsiya yoki turkiy bo'lim va shunga o'xshash o'yin kulgu hammasi haromdir. Shunday majlislarda o'ltirmaslik gunohdir», xalq san'atkorlari o'z xaq-huqulari uchun tinmay kurashdilar xalq sayillari to'y hashamlar musiqasiz, qo'shiq va raqssiz o'tmaydi Firdavsiy «shoxnomasiga» nazar tashlasak marosimlarda musiqaviy meros yetakchi mavqiyeda turganini ko'ramiz.

Hamma yoqda shodlik hamma yoqda to'y

Hamma yoqda o'yin, may cholg'u kuy («Shoxnoma» 1tom 11 bet)

Yoki o'ltirishlar, qizir bazm, may solg'u

Qo'shiqchi raqschi, qiziqchi, kulgu («Shoxnoma» 1tom 106 bet)

Navoiy «Xamma»ning oxirgi dostonida Iskandarning to'yi munosabati bilan soqiyga murojatetib «yor-yor» aytadi.

Mug'anniy tuzib chuniga vaznida chang

Nuvo cheki, xay, xay o'lang jon o'lang

Duong senki: jon qarloshim yor-yor

Men aytayki: munglig' boshim yor-yor

Din peshvolari xalqni besavod qilish madaniy qashoqlik, botqog'iga cho'ktirishga qanchalik urinmasin, ijodkorlar musiqa san'atini rivojlantirish yo'lida qaytmadilar. Tuxmat va tana toshlaridan boshi chiqmagan mashshoqlar g'arib benavolikda kun kechirib bo'lsada xalqimizning «chavandoz», «Ufor»larini, «Feruz», «Bayot», «Lazgi» va «Mavrikolarini» qiyomiga yetkazib ijro etganlar. Mahzun torlar mehnatkash xalq qalbidagi o'tli iztiroblarini, jabr-zulm qashshoqlik avj olgan holatini o'ziga singdirib yuborgan jahon musiqa madaniyatida yulduzdek porlagan buyuk inson noyob balant sohibi I.S.Baxning xayotbaxsh sinfoniyalari o'zi tiriklik paytida tan olinmadichunki ulug' munis kompozetorning asarlari

hayotni realistik tasverlar g'oyaviy mazmundor va insonparvarlik targ'ib qilish bilan cherkov musiqasidan tubdan farq qilardi. Uning ijodini butun dunyoga tanitgan omil nemis xalq qo'shiqlari bo'ldi.

Shunday ekan xalq musiqa merosi har bir millat professional san'atning rivojlanishi uchun ham tub manba bo'ladi deb hulosa chiqarish mumkin o'zbek xalq musiqasining shakllanishi ham xalq qo'shiqlari bilan bog'liq bo'lib o'z davrining obe'ktiv voqiyliklarini kuylagan.

2.2. O'zbek xalq qo'shiqlari bastakorlar ijodiyotida

Kompozitorlarimiz xalq musiqa san'atini ijodiy o'rganishi natijasida musiqa madaniyati xazinasiga bebaho durr bo'lib qo'shilgan san'at asarlari vujudga keldi. Go'zallika tashnalik sezgan inson qalbida yurak to'ridan o'rin olgan qo'shiqlar kompozitorlar ijodini shakllanishida fundamental asos sanaladi. Rus klassik musiqasining eng buyuk asarlari xalq qo'shiqlari asosida yaratilgan M.I.Glinka, Balakirev, Rimskiy Korsakov, chaykovskiy kabi istidodli qalb egalari poyonsiz rus zaminida maydonga kelgan qadimiy qo'shiqlardan ilxomlanib hayotbaxsh sinfoniya va kuylar yaratishdi Xususan M.I.Glinkaning «Ivan Susanin», «Ruslan va Lyudmila» operalari «Kamarinskaya» simfonik fantaziyasi rus xalq (musiqa yaratadi) musiqamerosi xazinasidan xaqiqiy o'rin egalladi. Kompozitor rang va sayqal beramiz deganida tamomila haq edi.

Xalqimizning ilxombaxsh qo'shiqlarini mahorat bilan ijro etgan san'atkorlar yaratgan musiqalarni to'plash va o'rganish qadim zamonlardan boshlangan edi XVIII asrda yashagan darvish Alining professor A.A.Semyanov tadqiq etgan mashhur traktatida cholg'u asboblarning mukammal ro'yxati, ularning kelib chiqishi haqida rivoyat va afsonalar, ayrim san'atkorlar ijodi hamda musiqiy asarlar haqida qiziqarli ma'lumotlar bor o'zbek adabiyotining asoschisi Hamza Hakimzoda Niyoziy xalq qo'shiqlari kuylarini to'plab sistemalashtirilgan yirik musiqashunos hamdir. U «milliy ashulalar» deb atalgan qator to'plamlarni nashr ettirdi. Hazaning 1915-1919 yillarda e'lon qilingan «Oq gul», «Pushti gul», «Qizil gul», «Sariq gul», «Yashil gul», «Sasar gul» nomli to'plamlarida xalq kuylaridan

o'rinli foydalanilgan. Xalq qo'shiqlari laparlar, dostonlari qadim zamonlarda paydo bo'lib og'izdan-og'izga o'tib badiiy varkamollashib bordi. Bu san'at yodgorliklarini bizgacha saqlab kelgan hofizlar ashulachi, baxshi va xalq shoirlarini, el hamisha ezozlaydi. O'zbek milliy musiqasini yaxshi biladigan atoqli kompozitor N.Meronov shunday degan edi. «O'zbekiston mehnatkashlari o'rtasida shariyatga, musiqaga va boshqa san'atlariga ishtiyoq yo'q. Butun o'zbek xalqining xarateridagi bu xususiyat juda yoqqol ko'zga tashlanadi. Diyarli har bir honadonda dutor, tanbur yoki nay kabi sevimli musiqa asboblari topish mumkin. O'zbeklar o'zlarining shoir va adiblarni shuningdek xofizlarini, ayniqsa xushovoz ashullachilarni: juda qadirlaydilar». O'zbek xalq marosimlari bayram shodiyoni musiqa va ashulasiz o'tmas, bu yig'inlarda doimo xofizlar ishtirok etib xalqqa estetik zavq ulashadilar. Ayniqsa Xorazmlik san'atkorlarning milliy musiqa merosini dildan dilga, eldan-elga yetkazib kelayotgan butun bir avlodni alohida tilga olish zarur. Ammo o'z sohasida chang vag'ijakni maromiga keltirib chalgan Qalandar, Dulmas mohir tanburchi Matikub Xarrot dovrig'i baland garmonchi ustoz Sheroziy «Chorbog'», «Segoh», «Guvora», «Chavondoziy suvora», «Navo», «Talqini rost» ashulalari bilan elni xushnud etgan Xojixon Xofiz shuningdek Matpanoh ota, Matkarim xofiz, «Ataullo xofiz», bola baxshi nomini kim bilmaydi deysiz.

Ijodkor va ijrochi asar yaratishda o'rgangan tajribaga va an'analarga suyanadi, ijro davomida o'zidan biror bir yangilik qo'shadi va uni sharoitga moslashtiradi. Jamoa tomonidan yaratilgan asarlar shu tariqa takomillashib xalq mulkiga aylanib boradi. Demak, folklor asarlarida yakka ijod roli inkor etilmaydi. Vatan, xalq kuychisi (dostonchi qo'shiqchi, baxchilar) jamoa tomonidan yaratilgan asarlarni mehanik tarzida boshidan oxirigacha so'zma-so'z yod aytmaydi, balki unga ijobiy munosabatda bo'lib, o'zidan nimadir qo'shadi, boyitib boradi shuning uchun ham kuylayotgan asarni «xalqniki» deb-tan olgan. Demak ijrochilar tomonidan xalq qo'shiqlari ertak va dostonlarning kuylanishi davomida silliqanib, g'oyaviy-badiiy jihatdan mukammallashtirilib borilgan.

Xalq musiqasi xalq hayoti bilan bog'liq ekan, unda turli jarayonlar mehnat, ommaviy marosimlar, bayramlari, sayllar, urf-odatlar davomida shakllanib kelingan.

Mehnat qo'shiqlari xalq og'izaki ijodining ibtidoiy namunalaridan biri bo'lib bunday qo'shiqlarning yuzaga kelishida mehnat jarayoni katta rol o'ynasa, mavsum-marosim qo'shiqlari esa fasllarga bog'liqdir. Bahor fasli kuy-qo'shiqlari esa fasllarga bog'liqdir, nikoh to'yi muchal to'ylari kirsa, motam-marosimlar aytimlariga esa alla aytimlar va boshqalar kiradi.

Turli vaziyat va davra qo'shiqlarning ijro etilishi biror-bir hodisa voqia yoki marosimlar bilan bog'liq bo'lmasada, ular xohlagan sharoit va vaziyatlarda kuylanib kelingan. Bu guruhga, qushiq, yalla, terma, lapar kirib, cholg'u asboblari jo'rliligiga ham ijro etiladi.

Ona tilimizda bo'lgan shevalar kabi musiqamizda ham turli shevalar shakllanib, bularga mahalliy uslublar qayd etiladi. Surxandaryo, Qashqadaryo, Buxoro-Samarqand, Xorazm-va Farg'ona-Toshkent musiqa uslublaridir, har bir mahalliy uslublar o'ziga xos xususiyat va an'analarga egadir. Bu an'analarga uzoq davrlar davomida shakllangan bo'lib, xuddi xalq qo'shiqlarida ham xalqimizning turli sharoitlardagi turmush tarzi, mehnat mashg'ulotlari turfa marosimlari, urf-odat bayramlari va boshqalar bilan bog'lanib ketadi.

Kasbiy-ustozona musiqaning ilk shakllanish davri ham uzoq o'tmishga borib taqaladi. Hozirda O'rta Osiyo hududida yashagan xalqlarning o'tmishda ham musiqa bilan shug'ullanganliklarini isbot etuvchi ashyoviy dalillar bundan dalolat beradi. Xalq orasidan yetishib chiqqan istedodli hofiz va mashshoqlarni podshox va boshqa amaldorlar o'zlarining saroylariga jamlab ularning xizmatlaridan foydalanishgan. Qarib qolgan san'atkorlarning o'rnini to'ldirish maqsadida istedodli yoshlarni yig'ib ularga shogirdlikka quyganlar. Shundan beri boshqa sohalar qatori san'atda ham ustoz-shogird an'anasi davom etib kelmoqda. Sharq musiqasi, shu jumladan, O'rta Osiyo musiqasi ustoz-shogirdga og'izaki ravishda o'rgatib kelinmoqda.

Professor V.M Belyoyev musiqa boyliklarimizni professional va professional bo'lmagan musiqalar deb ikki qismga bo'ladi. Professional musiqa-ashulachi, hofiz, sozandalar tomonidan yaratilib, ko'proq shular ijrosida aytilib kelingan maqomlar esa professional bo'lmagan musiqa-xalq tomonidan yaratilgan va xalq orasidajuda keng tarqalgan turli janr va formatdagi ashulalardir. Bu musiqa boylikimiz xalq orasida ishlanib, silliqanib badiiylashib va mukamallashib professional san'atning yuzaga kelishi varivojida muhim o'rin tutadi. Qadimiy musiqa risolalarida yozilishiga ko'ra, ashula maqomlarning juda uzoq davrlardan beri mavjud degan xulosaga kelamiz. Bu ashula va maqomlar xalq tomonidan unison (yakka ovozda) ijro etilib kelingan.

Maqomlar ko'pchilik sharq xalqlarida mavjud bo'lib, asarlarda-maqom,forlarda-dastgoh, Ozarbayjonlarda - mug'om, uyg'urlarda - muqom, hindlarda esa roga deb ataladi. Nota yozuvi paydo bo'lmagan davrda maqomlar avloddan-avlodga og'izaki ravishda o'rganilib kelingan. Har bir ijrochi ularga nimalarnidir qo'shgan, ayrim asarlarni «Silliqlagan». Maqomlar qandaydir muayyan shaxs yoki bir guruh kishilar tomonidan yaratilgan emas. Qadimiy an'anaviy xalq musiqasi zaminida vujudga kelgan. Al-Farobiy va Ibn Sinodan boshlab O'rta Osiyolik musiqa nazariyotchilar maqom sozini asosan muayan lad tizimi deb tushunganlar.

Xalq ijodida qo'shiqlar nota yozuvi bo'lmagani uchun keng tarqalmagan edi. O'zbek xalq qo'shiqlarini notaga yozib olishlari V.A.Uspenskiy, Y.Romanovskaya va N.Mironovlar tomonidan ko'p yillar davomida amalga oshirildi. Uspenskiy Buxoro shaxrida Ota Jaloliddin Nosirov va Ota G'iyos Abdug'ani kabi keksa mashshoqlardan shashmaqomni Ramanovski va mironovlar esa xalq qo'shiqlarini yozib olib to'plamlarni nashrdan chiqarganlar keyinchalik esa Yunus Rajabiy tomonidan yozib olinib to'plangan.

Jamiyatda xalq ijodi namunalarini saqlash va rivojlantirish, yuqolganlarini tiklash ehtiyoji o'zining estetik talablarini qondirish, yaxshi yashash va hayotni mukammallashtirishga bo'lgan intilishidan kelib chiqqan.

Bugungi kunda xalq an'anaviy ijrochiligini saqlash va rivojlantirish uchun katta imkoniyat va sharoitlar yaratilgan xalqning an'anaviy ijrochiligi ma'naviy xazinaning bir bo'lgan sifatida doimo ardoqlanib kelingan va xalqimizning ma'naviy merosiga aylangan, xalq ijodini asrab avaylash kelajak avlodga meros qilib qoldirish bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga egadir.

Bu borada Prezident xalqimizning tayanchi ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosning o'zi bir katta xazina, bu xazinadan mustaqilligimizning mustahkamlashda oqilona foydalanishimiz zarurligi haqida o'z asarlarida aytib o'tgan.

O'zbek xalqining musiqa madaniyati ko'p asrlik tarixga ega ko'pgina sozanda va xonandalar avlodining faoliyatida qaror topgan xalq hamda og'zaki an'anadagi professional musiqa san'ati bu haqida guvohlik beradi.

Xalq poyetic va musiqa san'ati dastlab sinkreik holatida bo'lgan to'g'risida Avesto kitobi va boshqa qadimgi yozma yodgorliklar, shunindek O'rta Osiyo xalqlarining turmushi ularning urf-odatlarini to'y-tomoshalarining arxaik elementlari guvohlik beradi.

Xalqning bayram marosimlari, masalan, bahorda kun va tunning baravarlashuvi – Navro'z keng tarqalgan. O'rta asr yozuvchilari musiqasining mehnat marosimlaridagi roli, insonning musiqani olam tuzilishi bilan tabiatdagi o'lish va tirilish haqidagi mitlar bilan bog'lashga bo'lgan intilishlarini ham ko'rsatib o'tganlar. IV-VII asrlargacha bo'lgan davr madaniyati va san'at turlarining, jumladan, musiqaning yuqori darajada rivojlangani bilan xarakterlanadi. Butun sharqda mashhur bo'lgan, O'rta Osiyoning yirik sozandasi va xonandasi, o'nlab kuylar ijodkori, barbot madhiya va tarixiy qo'shiqlar, harbiy g'alabalar to'g'risida qo'shiqlar ijod etgan Ozorbayjon adabiyotining klassigi Nizomiy «Xizrav va shirin» dostonida barbodning san'at shinavandalariga favqulotda kuchli ta'siri to'g'risida yorgan. Arab istilosi davrida (VII-IX asr) boshqa madaniy yodgorliklar kabi musiqaga doir yozma manbalar ham kuydirilib yuqotib yuborilgan. IX asrda hokimiyat Somoniylar sulolasiga o'tgandan keyin, bu davrda fan, madaniyati va san'atning rivojlanishi uchun bir qadar sharoit yaratiladi.

O'rta Osiyodan chiqqan olimlar xuddi shu davrlarda o'rta asr fani tarixida o'zbarining ilmiy asarlari bilan jahonga mashhur bo'ldilar, fanning boshqa sohalarida ham o'lmas ilmiy asarlar yaratgan Al-Farobiy, Ibn Sino, Al Xorazmiy kabi ko'pgina buyuk olimlar musiqa nazariyasi bo'yicha ham ilmiy asarlar yaratganlar hamda sharq musiqa fani taraqqiyoti tarixida butun bir davrni ochib berdilar.

Al-Farobiy o'zining musiqaqa bag'ishlangan risolalarida Sharq musiqa nazariyasini asoslab bergan bo'lib, uning musiqa asarlari «kitobul- musiqiy al kabir, (Musiqaqa oid katta kitob)», «Kilami fil-musiqiy» (musiqaning uslublari haqida kitob)», «Kilami fil-musiqiy (musiqaning uslublari haqida kitob)», «kitobun fi-ixsa il iyo (musiqqa rimlari iyo klassikasi haqida)» va boshqalardir. Uning musiqa nazariyasiga bag'ishlangan kitoblari sharqda bu haqda yozilgan asarlarning eng mukammali va eng mashhurlaridan bo'lib ijod etgan musiqa olimlarining kitoblarining yozilishida asos bo'lib xizmat qiladi.

Tarabiyning ishini davom etirgan Ibn Sino «Kitobush shifo (shifo kitobi)», «Donushnoma (Bilim kitobi)», «Rislatin fi-il-mal musiqiy (musiqiy ilm haqida risola)» va boshqa kitoblarining musiqaqa doir qismi Al Farobiy asarlari qatorida jahon musiqa fani va madaniyati tarixida alohida ahamiyatga ega. Ibn Sino o'zining tibbiyotga oid o'lmas asarlarida musiqaning hissiy ta'sir kuchiga katta baho bergani holda, ruhiy kasalliklarni davolashda uni yuksak qadrladi.

Kaykavusning «Qobusnoma» kitobi adabiyotning ajoyibiyodgorligi hisoblanib, unda saroy muhitidagi musiqachilarning bo'la bir kodeksini bayon qiladi. Ular ijro etgan kuy va ohanglar rangbarang to'xtaladi, vazn-ritmik tomonlari murakabligidan chiqib, kuylarning ohanglarini aniqlaydi.

Taniqli olim va musiqachi Abdulqodir avval Temur, keyinchalik esa uning vorislari saroyida xizmat qilgan u saroy musiqa shakllari bayon qilingan musiqa risolasining muallifidir.

Abdulqodir madhiya xarakteridagi musiqa asarini ijod qilgan bo'lib, unda tarje, peshrav va boshqa bir qator bizning davrimizgacha etib kelgan musiqa janrlari ham eslatib o'tiladi.

Alisher Navoiy g'oyat musiqani ardoqlagan va shu bilan birga uning ulkan bilimdoni edi. Hatto o'zi ham musiqa asarlarini ijod qilish bilan shug'ullanardi. Navoiy musiqani hamda uning katta ijtimoiy ta'sirini yaxshi tushunar edi. Uning fikricha musiqa ma'noli, ta'noli, ta'sirli bo'lib, xalq va uning hayoti bilan mustahkam bog'lanishi lozim. O'zi yaratgan qahramonlar (Farxod va Shirin, Layli va Majnun) va ruhiy holatini xarakterlar ekan A.Navoiy ishq va go'zallikni musiqa asbobi sadosi bilan qushlar qo'shig'i bilan qiyoslaydi.

Shoir sozandalar xofizlar va raqqosalar ishtirokidagi ziyofatlar tasviriga katta o'rin beradi. O'zining «Mezon ul-avzon» risolasida bir qator yangi vazn o'ochovlarini ko'rsatib beradiki bu o'lchovlardan o'zbek va tojik shoirlari ularni xalq qo'shiqlaridan o'zlashtirgan holda foydalanganlar XVI asr musiqa ilmining bilimdonlaridan Najmiddin Kavkabiy ijodi katta qiziqish uyg'otadi. U bir qancha musiqiy risolalar muallifi. Ulardan bir qanchasi saqlanib kelingan. Bulardan birinchisi nasrda ikkinchisi nazmda yozilgan «Musiqqa risolasi» va «O'n ikki maqom haqida» asarlarni tilga olish mumkin.

XVI asrning saroy musiqachisi va nozaryotchisi Darvishali Changiy edi. Muallif boshqalardan farqli holda, faqatgina musiqa nazariyasi asoslarini bayon qilmay, balki o'z asarining katta qismini turli davrda yashab ijod etgan bir qator musiqachilar faoliyati, saroyda mavjud bo'lgan asboblari tavsifiga ham bag'ishlaydi. Musiqiy – nazariy risolalar bilan bir qatorda «Bayoz»lar ham vujudga kelib muayyan kuylar nomi ko'rsatilgan qo'shiqlar matnidan iborat to'plam hisoblanadi. Oldingi maqom yo'llarining shashmaqom tizimiga aylanish shunchaki yuzaki holat emas, balki bu qadimiy maqom an'analarini yangi ijtimoiy ma'daniy muhitda ijodiy o'zlashtirish, o'ziga xosligi bilan to'ldirishning murakkab jarayonidir «Shashmaqom» iborasi klassik musiqamizning nomi sifatida bevosita sohaga oid manbalarda XIX asr o'rtalarida uchraydi.

XIX asr oxri va XX asr boshlarida shashmaqom haqidagi ma'lumotni Ahmad Donish, Sadiriddin Ayniy, A.Fitrat va boshqa mualliflarning asarlaridan topish mumkin. Mazkur davr tarizida A.Donish taniqli shaxs bo'lib, o'zining «Nodir voqialar» kitobidagi falsafiy mushohadalaridan birida surat va siyrat

masalariga to'xtaladi. Maqom san'atiga faol qiziqishini ma'naviy qadriyat sifatida qadrlash XIX asrda etiboran Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarida biroz jonlana boshladi. XIX asrning boshlariga kelib mintaqada jadidchilik harakatining rivojlanish munosabati bilan milliy – klassik musiqa maqomlariga bo'lgan ehtiyoj yangi bir bosqichga ko'tarildi.

Klassik musiqamizning ilmiy asoslarini yaratishda Fitrat peshqadamlik ko'rsatgan. Muallif eski musiqiy risolalarning yaxshi bilimdoni bo'lishiga qaramay uning asarlarida o'tmish musiqashunoslarning majoziy tilidan farq qiluvchi yangi bir uslub joriy etilganligi sezilib turadi. Fitratning o'zbek klassik musiqasining yuksak ma'naviy salohiyatiga oid qarashlari 1923 yili Masqvada chop etilgan. «Bedil» deb nomlanuvchi go'zal bir badiiy shaklda o'z ifodasini topgan.

Garchan musiqa Fitrat ilmiy intilashlarining kichik bir bo'lagini tashkil etishgan qaramasdan, bu san'atning asoslari yuzasidan keng ko'lamda va atroflicha fikr yuritiladi. Sharqona o'quv muassasalarining tashkil etilishi va unga Ota Jalol, Ota G'iyos, Domlo Nalim Abdurahmon Umarovlarga o'xshagan yirik ustozlarning jalb etilishi davlat ta'lim tizimida dadil qadam edi.

XIX asr oxirida boshlab o'lka xalqlari musiqa folklorini o'rganishini mahaliy musiqa folklorini o'rganishini mahlliy musiqaga qiziqishning uyg'onishi O'rta Osiyoda dastlabki o'zbek musiqaga folk'loristikasiga asos solindi. O'zbek xalq qo'shiqlarini notaga yozib olish 1-jahon urushidan keyin boshlandi. O'zbekistonda bu sohada V.A. Uspepiskiy YE YE Romonovskiy N. N Muronovlar birinchilardan bo'lib samarali ishlarni amalga oshirganlar.

V.A. Uspeniskiyga shunday bir shart qo'yilgan: U notaga yozgan kuylarni avvalo o'zi fortopianinada cholib eng nufuzli ustozlardan iborat hayhat diqqatiga taqdim etgan. Kompazitor, pedagog Uspenskiyning xizmati shundan iboratki, «shoshmaqomni notaga tushirish bilan birga u juda ko'plab kuy qo'shiqlarni to'plagan. U turkmanistonning turli viloyatlarga 2 marta qilgan yekspididsiyasi davomida 350 dan ortiq xalq musiqalarini yozib oldi.1928 yilda Samrqandda ochilgan musiqa va xoriogofiya instituti iste'dodli o'zbek musiqachi yoshlarni xalq ijodini to'plash yulida ish olib borishga qiziqtiradi. Yosh musiqachilar Mo'tal

Burxonov Muxtor Ashrafiy, Tolibjon Sodiqov, Manos Mviyev va boshqalar shu institutda o'qib musiqa boshlang'ich bilim oldilar.

Yunus Rajabiy o'zbek xalq musiqasini sestemali ravishda to'plash jarayonida xilma-xil ashula, qo'shiq jarayonini to'plash va yozish tajribasini boyitib bordi. U avvalo sodda sodda notaga o'ng'ay o'nlab kuylarni xotirasiga tanlay boshladi va 30-yillarga kelib bevosita notaga yozishga kirishdi.

Xalq sozandasi Ilxom Tug'rayevning ta'kidlashicha, Yunus Rajabiy «shitob aylab»,»dog'man « I- «yaxchilik qil,» «Izlayman,» «Baxt gulzori,» «aliqombar,» kabi kuy va qo'shiqlarni yozib oladi.

1960 yilda O'zbekiston Radiosi huzurida maxsusmaqom ansambilini tashkil etdi.

Maqom ansamblida Yunus Rajabiyning o'zining bevosita rahbarligi va ishtirokida shashmaqomning Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh Iroqning ashula yullarini yuksak darajada o'zlashtirdi. Ularni magnitlentlarda va gramplastinkalarga xam yozib, Shoshmaqom yullarini shinavandalarga taqdim qilishadi. Yunus Rajabiy umrining oxirida shoshmaqom ijrosidagi ayrim masalalarga bag'ishlab, yosh maqomchilar maslahat tariqasida o'zining «O'zbek xalq musiqa merosi» qo'llanma kitobini yozib qoldirdi. Bunda maqom yo'llarini ijro etish usullari, maqom ijrochiligidagi ansambl orttirgan boy tajribasi hisobga olinib, tuplamlarda yo'l qo'yilgan ba'zi kamchiliklarni tuzatib artish yo'llari ko'rsatib berildi.

Musiqa maktabi yaratish binobarin illiy musiqa madaniyatining progressif tomonlarini ijodiy uzlashtirb kelgusi avlodga yetkazish xususida mashhur xalq xofizi xojixon Boltayev shunday degan edi. «Xorazmda o'tmishda maxsus musiqa maktabi bo'lmagan yetuk san'atkorlar maktab yaratishgan. Maqolalar ham ustozdan shogirdga o'tib yashab kelgan. Men maqom o'rgangan paytda ta'lim jarayoni dutor chalish mashiqi tinglash, ko'rish, yodlashdan iborat edi, shogirtlar ustozga taqlid qilishardi. Xorazm baxshilari dutor, bulaman, g'ijjak, doira, qo'shnay jo'rligida dostonlarni yoddan aytganlar». Bu ham o'ziga xos ansambil edi. Yangi zamon musiqa ilmiy san'at tariaqqiyoti uchun keng imkoniyatlar yaratib

berdi. Komiljon rahbarligida tuziladigan ansambil Xorazm musiqa an'analarini milliy san'at xususiyatlarini saqlab qolish bilan birga davr ruhini unga singdirish, hozirgi zamon musiqasi yutuqlarini o'zida aks ettirish yani novatorlik yo'lidan borishi kerak. Komiljon Otaniyozov klassik musiqamiz an'analarini yangi avlodga yetkaza olgan ulkan xofizdir «Xalq musiqasi ildizlari teran» deb bilgan. K.Otaniyozov Xorazm musiqa folklorining bezaklari mukammalashib borgan musiqa an'analari olamida voyaga yetdi. Biz yuqorida nomini zikr qilgan tuproqqaladan topilgan arab chalayotgan ayol tasvirini ko'rgan Petrov O'rta Osiyo madaniyatining teran ta'sirlari Xorazmdadir. Xorazmda qadimdan san'at qadrlanadi. K.Otaniyozovning repertuaridagi ko'pgina qushiqlar folklordan aniqrog'i «Xorazm xalq dostonlaridan» «Qizlar», «Toxir va Zuxro» dan «Bulbul ko'rdim», «Namasam», «Shoxsanam va g'arib» dan «Sallona sallona» dostonlaridan «Sayidjon bog'dadir bog'da», «Yora tegmasmi» kabi qo'shiqlar nene dillarga larza solmagan. Ustoz shogird xalq musiqasining ushbu va shakllarini o'ziga xos milliy xususiyatlarini hisobga olib yangi o'ynoqi kuylar yaratdi. Xalq kuylari uning torida yangi zamon sadosi bo'lib yangradi. Xalq kuylari uning ortida yangi jo'shqinlik va realistik mazmun kasb etdi. Xalq qushiqlari tinglovchilar qalbiga chuqur yetib bordi, ularning oldida estetik zavq, ezgu hislar uyg'otadi. Bu qo'shiqlar kishiga jushqinlik kutarinki mehnat bag'ishlaydi.

2.3.Boshlang'ich sinf musiqa darslarida o'zbek xalq qo'shiqlarini o'rganish uslubiyati

Davlatimiz yoshlarga barcha imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Jumladan maktab o'quvchilariga yoshlik chog'idanoq o'ziga talabchanlik ruhida tarbiyalash juda muhimdir. Maktab insonni axloq prinsiplari asosida yashashdan iborat ichki ehtiyojni vujudga keltirish kerak. Ayniqsa bu borada adabiyot, musiqa, tasviriy san'at estetikasidan keng foydalanish zarur. Bu prinsiplar tarbiaviy kuchga ega. Yoshlar dunyo qarashida tarbiya vositasi sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'zbek xalq musiqa merosi o'rgatilmoqda. O'zbek xalq merosida qo'shiq demokratik janr bulib xalq psixologiyasini, ruhiyati, xayoti haqida ma'lumotlar mavjud. Tarbiaviy axamiyatga ega, o'zbek xalq musiqasi o'rta maktablarda

qanday o'rganilmoqda. Kuzatishlar suhbatlar natijasida shunday fikriga keldik, musiqa merosini o'rganish ishlari, darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarida sistemasiz, aniq maqsadga qaratilmagan holda olib borilyapti o'qituvchilar musiqiy meros bilan tanish emas, tarbiyaviy mohiyatini tushunmaydi.

Qadimiy qo'shiqlar Qadimiy O'rta Osiyo xalqlariga oid qo'shiq va termalarning namunalari Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'atit turk» asarida saqlanib qolgan. Devonda keltirilgan xalq qo'shiqlaridan parchalar ham ilmiy, ham ta'limiy ahamiyat kasb etadi. Didaktik ma'no tashiydigan qo'shiqlarning ba'zi bir namunalari o'zbek xalq dostonlarida mavjud an'anaviy motiv-ota nasihatlariga o'xshab ketadi.

Ko'pchilik to'rtliklarda mardlik va qahramonlik, dushmanga g'azab g'alabaga ishonch tuyg'ularini ulug'lanib, xasislik va yuzsizlik kabi illatlar qoralanadi. Devondagi qo'shiqlarni asosan ovchilik, chorvachilik mavsum marosim va qahramonlik qo'shiqlari tashkil etadi. Ma'lumki dastlabki qo'shiqlar estetik zavq berish maqsadida emas, balki tabiatga ta'sir ko'rsatish uchun yaratilgan va aytilgan, chunki ibtidoiy tushunchaga hayotning go'zalligi, kasal bo'lmaslik, hosildorlik yaxshi ov, oilaviy turmush va xo'jalikka muvoffaqiyat, tabiatga ma'lum ta'sir ko'rsatishdan kelib chiqadi. Bunday qo'shiqlar tarixiy taraqqiyotjarayonida o'zgarib, mavjud ibtidoiy tushunchalar o'rnini yangi, hayotiy tushunchalar egallagan.

Mavsum bilan bog'liq bo'lgan qo'shiqlarda odamlarga xos xususiyatlarni jonivor va tabiat hodisalariga bog'lash-antropologizm elimentlari ko'rinadi. Aniqrog'i, g'ayri tabiiy ko'ringan qish va yoz fasli odamga o'xshatilgan. Binobarin, ularga ham jon, yaxshi va yomon xususiyatlar bor deb tushunilgan, dialistik tushunchalar singdirilgan. Shuning uchun ham qish mavsumida xalqning mayuslik va zorlanish, yoz mavsumi talqinida esa shodlik va xushnudlik kayfiyatlari sezilib turadi. Anna shu tushuncha bilan bog'liq bo'lgan qo'shiqlarda qishva yoz jonlantiriladi, bir-biriga contrast tarzida qo'yiladi, ular tasvirida yaxshi va yomon xususiyatlar ta'kidlandi. Tortushuv shaklida kelgan qo'shiqlarda qish o'zafzaligini maqtaydi.

«Devoni lug'otit turk» asrida jangnomalaridan darak beruvchi qo'shiqlar ham mavjud. Ularga bahodir , mardu-maydon yigitlarning qahramonliklari tasvirlanadi . Xalq ichidan chiqqan pahlavonlar ulug'lanib , beqiyos kuch-qudrati ta'riflanadi.

Badiiy adabiyotda bo'lganidek, folklor asarlari ham tuzilishi va g'oyaviy-badiiy xususiyatlarga ko'ra o'zaro o'xshash hamda farqli tomonlarga ega bo'lib muayyan guruhlarni tvshkil etadilar. Bunday farqli va o'xshash tomonlarni ko'rsatish uchun janr termi bilan qullaniladi.

O'zbek folk'kloi asarlari, avvlo ikki katta gruhga bo'linadi.

1. Urf-odat va mavsum-marosimlar bilan bog'liq asarlar
2. Turli urf-odat va marosimlar bilan bog'liq bo'lmagan folk'lor janrlari.

Birinchi gruhga

- a) mehnat qo'shiqlari (xo'p-mayda, turey-turey, churey-churey, ho'sh-ho'sh)
- v)mavsum qo'shiqlari.
- s) marosim qo'shiqlari.
- d) aytimlar kiradi.

Ikkinchi guruh

Epik (dostonlar, ertak , afsona), Lirik (qo'shiq, ashula , terma) dramatik (askiya, og'izaki gramma) va kichik (maqol topishmoq) janrlarni o'z ichiga oladi.

O'zbek folklorining turli janrlari har xil ijodkorlar faoliyati bilan bog'liq. Folklor janrlari g'oyaviy-tematik va badiiy xususiyatlari bilangina emas balki ijro usullari jihatidan ham bir-biridan farq qiladi. Ularning biri (masalan qo'shiq) kuylash. Uchun ikkinchisi (mos ertak) aytib berish, hikoya qilish uchun, yana biri (doston) ham kuylash ham aytib berish uchun. Yana biri (og'zaki drama) ko'rsatish namoish qilish uchun mo'ljallangan bo'ladi.

Folklor janrlari bir-biridan qanchalik farq qilmasin ular tarixan tarkib topgan.

Dostonlar Doston o'zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biridir. Uning yaratilishi xalqimizning ma'naviy-maijij qiyofasi axloqiy yestetik qarashlari ozodlik va tenglik, qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi idiallari

bilan chambarchas bog'liqdir, «Doston» so'zi qissa, hikoya, sarguzasht ma'nolarida ishlatiladi. Adabiy termin sifatida bu atama xalq og'izaki ijodi va yozma adabiyotlardagi yirik hajmning epik asrlarni anglatadi xalq dostonlarining tematik hamda janr xususiyatlari uning o'ziga xos formasini belgilaydi, ya'ni kuy va ijro bilan mahkam bog'liq bo'lgan keng ko'lamli dostonlarning poitik bayoniga tantanavorlik, an'anaviylik, she'riy, prozoik qismlarning davomiy amashib kelishi xosdir.

Baxshilar. Xalq og'zaki ijodining yuksak professional san'at turi doston va dostonchilikning paydo bo'lishi taraqqiyati baxshilar nomi bilan bog'liqdir. H.T.Zarofovning yozishicha baxshi mo'g'ilcha bag'sha so'zidan olingan bo'lib, ustoz ma'rifatchi ma'nolarini beradi. Xalq dostonlarini O'zbekistonning aypim yerlarida baxshi so'zidan tashqari boshqa nomlar bilan ham britiladi. Misol: Surxandaryo va Qashqadaryoning ayrim joylarida yuzboshi janubiy Tojikiston o'zbeklari orasida soqi, Surxandaryo va Janubiy Tojikistonning ayrim joylarida sozanda deb yuritiladi. Dostonchilik maktablari, professor Xodi Zaripov olib borgan tekshirishlarga ko'ra, yerik notaning yaratuvchilari ikki guruhga bo'linadilar. Birinchi guruhga saroy shohlari, qalandar, darvish sifat baxshilar kirib ular xonu – beklarni madh etuvchi asarlar yaratganlar.

Ikkinchi guruh vaxshilar bevosita mehnatkash omma orasidan yetishib chiqqan uning manfaatlarini himoya qilgan demokratik g'oyalarni oldinga surgan dostonlardandir. Qo'shiqlar. Asosan mustaqil to'rtliklardan tashkil topgan el orasida keng tarqalgan va kuylangan xalq she'ri namunalari qo'shiq deyiladi. Masalan: «Yor-yor», «O'lan», «Lapar», «Kelin-salom», «Alla», «Xush kelibsiz» va bosh qo'shiqlar asosan barmoq vaznda yaratilgan bo'ladi. Qo'shiqlar turli joylarda turlicha ba'zi hollarda sozsiz, ba'zan dutor bo'mbira, doira va boshqa xalq chog'u asboblari bilan kuylanadi. Qo'shiq termini birinchi marta XI asrda yozilgan, ilmiy adabiyotlarning eng qadimgi hisoblangan Mahmud Qoshg'ariyning «Divonu lug'ati turk» asarida qo'shiq shaklida berilgan bo'lib bu so'zning izohi qasida deb ko'rsatilgan.

Mehnat qo'shiqlari xalq she'riyatining eng avvalgi turlaridan biri bo'lib, ularning yaratilishi va ijro etilishi kishilarning mehnat jarayoni bilan bevosita bog'liqdir. Dehqonlar, hunarmandlar ishlab turib qo'shiq aytganlar qo'shiq kishilar mehnatini yingillatgan, ayrim so'zlari, undov nidolari ko'pchilikning baravar harakat qilishini uyushtirgan. Shu sababdan qo'shiqdagi so'zlar, vazn, qofiya ixcham, aniq bo'lgan. Ayrim so'zlar vaqti – vaqti bilan takrorlanib, hayqiriq, chaqiriq, shikoyat yoki mamnunlikni bildiruvchi nidolar alohida ohangda aytilib turilgan.

Qo'shchi qo'shig'i qahramon qishdan bola – chaqasi bilan toliqib chiqqan dehqon bahor kelishi bilan yer haydashga kirishadi. Tabiat jonlangan xushhavo, biroq uning ho'kizi ishga yaramaydi – o'lguday och madori qurigan. Dehqon ilk vahordagi nochor ahvolini ho'kiz tilidan tasverlaydi.

Mavsum-marosim urf-odat qo'shiqlari. Insonning yashash hayot kechirish tarzi, yilning turt fasli mehnat oylari, bayramlar, urf-odatlar, marosimlar, mavsumiy ish harakatlari bilan bog'liq ravishda juda ko'p qo'shiqlar yaratilgan. Navruzning kelishi, bahor yomg'iri, laylak kelishi, ekinlarning chiqishi, xuron quvonchi, donlarni qo'shlardan saqlash kabi qo'shiqlar bor.

Turli urf-odatlar marosim va irimlar bilan bog'liq bir qancha qo'shiqlar yaratilganki bunga «Yo ramazon», «Barot keldi», «Safar qochdi», «Badki», «Bo'ka-bo'kavoy», «Sust xotin», «Boychmchak» kabilarni ko'rsatish mumkin.

To'y qo'shiqlari. Juda qadim zamonlardan beri kishilar hayotida muhim voqia bo'lib kelgan. Xalqning ma'naviy boyligi to'y tomoshalarda namoyon bo'ladi. To'y marosimlari uylanish to'yi, xatna to'yi, yosh to'y, beshik to'yi singari xilma-xil bo'lganidek, uning qo'shiqlari ham turli-tumandir. Quyida, asosan nikah to'ylarida aytiladigan qo'shiqlar haqida biki yuritimiz.

«Yor-yor»lar. Qiz uzatar kechasida aytiladigan qo'shiqlardan biri «yor-yor»lardir «yor-yor»lar musiqiyliigi, ma'lum chiziq ohangda ko'pchilik bo'lib kuylanishi, naqoratlari bilan ajralib turadi.

Kelin salom: kelinchakning kiyovning yaqin qarindosh urug'lari bilan tanishtirish marosimida kelin salom yoki betochar qo'shiqlari aytiladi. An'anaga

ko'ra kayvoni kelin tushadigan uyga darvozadan olib kirishdan boshlab aytadi. Uy egalari, to'yga kelganlar esa «aliki salom» deb salomga javob qaytaradilar. Misol: Buxoro va samarqandda an'anaviy «salomnoma»lar o'qiladi.

Termalar: Terma o'zbek folklorining mustaqil janri bo'lib, uning yaratilishida baxshilarning roli nihoyatda kattadir, ko'pchilik hollarda ular dostonchilarning individual ijodi hisoblanadi. Pand-nasihati, odob-axloq, soz va so'z haqida yaratilgan, ijtimoiy hayotdagi turli hodisalar, shaxs va jonvorlarning ta'rifi yoki tanqidiga bag'ishlangan baxshilar tomonidan kuylanadigan 10-12 satrda 150-200 ba'zan undan ortiq misralgacha bo'lgan lirik-yerik, she'rlarga terma deyiladi.

Bolalar folklori: Bolalar folklorlari kichik toylar olami bilan kattalar dunyosining uyg'unlashuvi oqibatida yuzaga keladigan o'yg'unlar, qo'shiqlarning butun bir sistemasi tarzida tarkib topgan.

Allalar. Bolalarni uxlatish: aslida «alla» so'zining lug'aviy manosi ham ovutib, avaylab uxlatishdan iborat allaning ikkinchi vazifasi tarbiyaviy estetik mohiyat kasb etishida ko'zga tashlanadi. Bu uning emosional ta'sirchanligidan kelib chiquvchi xususiyat bo'lib, bolani kuy og'ushida hayot bilan tanishtirish ohanglari vositasida hayot ma'nosini anglashga yo'l ochish, shu zayilda estetik didni shakllantirish va o'stirish maqsadida qaratilganligidir.

O'zbek xalq qo'shiqlarining tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ularni yuksak go'zallikka va vaxt – saodatga erishishning birdan-bir yo'li maqsad sari qat'iy intilishidan sabr va chidam, matonat, mardlik, qahramonlik ko'rsatilib boriladi.

Musiqada darslari yuksak metodik jihatdan tashkil etilsa, bolalar dunyosiga ta'sirchanligi kuchli bo'lardi. Xalq qo'shiqlari o'zining musiqiy ravonligi va ritmik ko'rinishi maqomlar bilan ham uzviy bog'liqdir. Xalq musiqasi ijodi tarixiy faktlarga asoslangan qadiymiy san'atdir. Musiqasi merosi o'zining soddaligi hush oxangligi bilan o'quvchilarni jalb qiladi. O'quvchilarni xalq musiqasi merosiga qiziqtirishni asosiy maqsad qilib oldik. Darsda ijodiy mehnatni zaruriy sharoitlardan biri deb belgiladik, shuning uchun pedagogik amaliyotda quyidagi xulosalarga keldim. Xalq musiqasi merosini o'rganishga bag'ishlangan darslarni

doimo tushunarli va qiziqarli texnik vositalaridan foydalangan holda tashkil etish kerak. Musiqa merosini o'rganishga bag'ishlangan darslar uchun alohida plan va konspektlar tuzdim. Dars jarayonida foydalanilgan metodlarning ta'siri o'quvchilarning javoblaridan aniqlab bildim. Xalq musiqasi davr oynasidir. U o'zi yaratilgan davr mohiyatini aks etiradi. Ya'ni xalq musiqasi badiiy tilga egadir. Shuning uchun biz o'zbek xalq merosini ishining dastlabki poydevorini tashkil etadigan boshlang'ich sinflarda o'rgata bordik.

Foydalangan adabiyotlar

1. I.A.Karimov «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» T; Ma'naviyat 2008 y. 171 bet.
 2. I.A.Karimov «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin» 2 tom T; «O'zbekiston» 1996 y.
 3. I.A.Karimov «Vatan sajidagoh kabi muqaddasdir» 3 tom, T; «O'zbekiston» 1996 y.
 4. I.A.Karimov «Maqsadimiz tinchlik, barqarorlik, hmkorlik» T; «O'zbekiston» 1995 y.
 5. I.A.Karimov «Istiqlol va ma'naviyat», T; «O'zbekiston» 1995 y.
 6. I.A.Karimov «O'zbekiston taraqqiyoti yo'lida» T; «O'zbekiston» 1994 y.
 7. D.F.Omonullayev X. Nurmatov va boshqalar «Boshlang'ich ta'lim, DTS dasturi». 1999 y.
 8. X.Boymirzayiv va boshqalar «Musika o'rganish metodikasi» T; 1995 y.
 9. F.M.Sharipova «Musika o'qitish metodikasi» o'quvch qo'llanma, T; 2008 y.
 10. G.Sharipova «Musika tarbiyasi metodikasi fanidan dastur», T; 1997 y.
 11. M.Sharifxo'jayev «Vatan va millat muqaddasdir», T; 1998 y.
 12. A.Fitrat «O'zbek klassik musiqasi va uni tarixi», T; 1993 y.
 13. O.Ibragimov «O'zbek xalq musika ijodi», T; 1994 y.
 14. O.Safarov «Bolalarni erkalovchi o'zbek xalq qo'shiqlari», T; «Fan» 1983 y. 82 bet.
 15. O. Matyoqubov «Og'zaki an'anadagi professional musika asarlariga kirish», T; «O'zbekiston» 1983 y. 64 bet.
 16. J.Majidov R.Rajabov «Maktabda musika ta'limi samaradorligini oshirishning didaktik asoslari», T; 1990 y.
 17. «Bastakor sharq Akramovning xayoti va ijodiyotini o'rganish uslublari», T; dos.H.Valixajayev Samarqand 2009 y. 36 bet.
 18. J.G.Yuldoshov. «Ta'limimiz istiqloli yo'lida», T; Sharq.1996 y.
 19. G.Sharipova «Musika tarbiyasi metodikasi fanidan dastur», T; 1997 y
 20. X.Nurmatov va O.Ibragimov «6-sinfda musika darslari uchun qo'llanma». T; 1996 y.
1. Fayzullayev E. Bo'lajak musika o'qituvchilari badiiy didini shakllantirishda o'zbek mumtoz musiqasi imkoniyatlaridan foydalanish.-T.: 2008yil.
 2. Karimov I.A.Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: "Sharq" nashriyoti,1997y.
 3. Hasanov A.Sh. Musika va tarbiya.-T.: O'qituvchi, 1993y.

**A.Navoiy nomli SamDU Musiqa, badiiy grafika va mehnat ta'limi fakulteti
Musiqiy ta'lim yo'nalishi 4 bosqich talabasi Davronova Gulnoza tomonidan
bajarilgan "O'zbek xalq musiqa merosini o'rganishning o'ziga xos
xususiyatlari (Boshlang'ich sinf musiqa darslari misolida)" mavzusidagi
yozgan bitiruv malakaviy ishiga**

TAQRIZ.

O'zbek xalq musiqa merosimizni tarixi va hozirgi kun talablarini o'quvchi yoshlar maktab yoshidan boshlab o'rganib borishlar shart. Chunki, maktabda musiqa ta'limining asosiy maqsadi o'quvchilarda «Musiqa madaniyatini» tarkib toptirishdir. Musiqa o'qituvchisi darslarga mavzularni tanlab, rejalashtirishda ko'rgazmali qo'rollardan, texnik vositalardan ham foydalanishi kerak. Musiqa darsida musiqa faoliyatlarini oddiydan-murakkabga o'tish prinsipi asosida o'zaro mantiqiy bir butunlikka erishish va o'qitishning rivojlanuvchi, ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish zarur.

Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitishning asosiy maqsadi-boshlang'ich sinf o'quvchilariga musiqa san'atining go'zallik qonunlari asosida hamda o'zbek xalq musiqa merosimizga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish va uning o'rganish malakasini oshirish hamda ularga musiqa madaniyatini tarkib toptirishdan iboratdir. Boshlang'ich sinflardagi musiqa madaniyati darslari, umumiy ta'limning ahloqiy-estetik tarbiya berish tizimining ajralmas bir qismi bo'lib hisoblanadi.

Malakaviy bitiruv ishida mavzu atroflicha tahlil qilingan va ishda juziy kamchiliklarga yo'l quyilgan deb o'ylayman va malakaviy bitiruv ishini himoyaga tavsiya etaman.

**SamDU pedagogika va boshlang'ich
ta'lim fakulteti
Pedagogika kafedrası**



dots.H.Yusupov

**A.Navoiy nomli SamDU Musiqa, badiiy grafika va mehnat ta'limi fakulteti
Musiqiy ta'lim yo'nalishi 4 bosqich talabasi Davronova Gulnoza tomonidan
bajarilgan "O'zbek xalq musiqa merosini o'rganishning o'ziga xos
xususiyatlari (Boshlang'ich sinf musiqa darslari misolida)" mavzusidagi
yozgan bitiruv malakaviy ishiga**

TAQRIZ

Davronova Gulnoza tomonidan bajarilgan "O'zbek xalq musiqa merosini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari (Boshlang'ich sinf musiqa darslari misolida)" mavzusida O'zbek xalq musiqa merosimiz tarixi va hozirgi kun talablarini o'quvchi yoshlarga maktab yoshidan boshlab o'rganib borishlarini keng yoritib bergan. O'zbek xalq musiqa merosi orqali o'quvchi-yoshlarni ma'naviy dunyo qarashini, musiqiy badiiy didini estetik qarashlarini shakllantirib borish musiqa o'qituvchisidan katta maxorat talab qiladi. Umumta'lim maktablarida musiqa darsida faoliyat turlaridan keng foydalanish o'zbek xalq musiqa merosini yoshlar ongiga singdirishda turli xil pedagogik texnologiyalardan foydalanish bitiruvchi tomonidan tadqiqotlar asosida ko'rsatib berilgan.

Boshlang'ich siflarda musiqa o'qitishning asosiy maqsadi-boshlang'ich sinf o'quvchilariga musiqa san'atining go'zallik qonunlari asosida hamda o'zbek xalq musiqa merosimizga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish va uning o'rganish malakasini oshirish hamda ularga musiqa madaniyatini tarkib toptirishdan iboratdir. Boshlang'ich sinflardagi musiqa madaniyati darslari, umumiy ta'limning ahloqiy-estetik tarbiya berish tizimining ajralmas bir qismi bo'lib hisoblanadi.

Malakaviy bitiruv ishida mavzu atroflicha tahlil qilingan va bu ish kelajakda musiqa o'qituvchilari uchun foydali deb o'ylayman va malakaviy bitiruv ishini himoyaga tavsiya etaman.

**Samarqand shahar
20- umumta'lim
maktab direktori:**



A.Navoiy nomidagi SamDU, 5111100- musiqiy ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi Davronova Gulnoza tomonidan bajarilgan "O'zbek xalq musiqa merosini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari (Boshlang'ich sinf musiqa darslari misolida)" mavzusidagi Bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar

XULOSASI

O'rta maktablarda musiqa darslarini xalq qo'shiqlarini o'rgatishga e'tibor qaratish kerak. Yuqorida ta'kidlaganimizdek xalq qo'shiqlarini puxta bilish zarur.

Hozirgi yoshlarning musiqiy didi ularning qiziqishi saviyasi anchadan buyon baxs munozaralarga sabab bulib kelmoqda. Ko'pgina musiqashunos olim va ijrochilar xalq qo'shiqlari hamda maqom san'atimiz va an'anaviy musiqa san'atimizga nisbatan estradani, umuman keyingi musiqani «Hazm» qilishlari haqida kuyinib gapiradilar.

Bugungi kunda ijrochi yoshlarimiz o'rtasida musiqiy merosimizga qiziqish ortib borayapti.

Bu bo'lajak pedagoglar o'quvchi yoshlar o'rtasida musiqa merosimizni targ'ibot-tashviqot qilishimiz davr talabidir.

Mehnat qo'shiqlari xalq she'riyatining eng avvalgi turlaridan biri bo'lib, ularning yaratilishi va ijro etilishi kishilarning mehnat jarayoni bilan bevosita bog'liqdir. Dehqonlar, hunarmandlar ishlab turib qo'shiq aytganlar qo'shiq kishilar mehnatini yingillatgan, ayrim so'zlari, undov nidolari ko'pchilikning baravar harakat qilishini uyushtirgan. Shu sababdan qo'shiqdagi so'zlar, vazn, qofiya ixcham, aniq bo'lgan.

Davronova Gulnozaning tanlagan mavzusi dolzarb mavzulardan biri bo'lib hisoblanadi. Bitiruv malakaviy ish ba'zi bir juziy kamchiliklardan holi emas bitiruv ishning nihoyasiga yetkazilgan deb hisoblayman.

Ilmiy raxbari:



E.K.Djalilov